

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS
TA'LIM VAZIRLIGI**

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

TABIIY FANLAR FAKULTETI

“EKOLOGIYA”KAFEDRASI

Ekologiya ta'lim yo'nalishi bitiruvchisi

AMONOVA AZIZA AVAZ QIZINING

**5630100-Ekologiya va tabiatdan foydalanish ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavr
kvalifikatsiyasini olish uchun**

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

**MAVZU: TABIIY LANDSHAFTLARNING
URBOLANDSHAFTLAR BILAN O'RIN ALMASHISH
OQIBATLARI
(O'ZBEKISTON MISOLIDA)**

BMI kafedraning №__ sonli qarori

«__»_____2015 yil bilan himoyaga ruxsat etilgan

Fakultet dekani: _____ X.T. Artikova

Kafedra mudiri: _____ A.E. Xolliyev

Ilmiy rahbar: _____ B.N. Doniyorov

Buxoro–2015

MUNDARIJA

KIRISH	3
I bob. O'zbekistondagi tabiiy landshaftlar va ularning xususiyatlari.....	6
II bob. O'zbekistonda urbanizatsiya jarayonlari	
2.1. Urbolandshaftlar haqida umumiy ma'lumot.....	23
2.2. Shaharlar rivojlanishi va tabiiy muhit.....	26
2.3. Antropogen landshaftlarning xilma-xilligi.....	30
III bob. Tabiiy landshaftlarning urbolandshaftlar bilan o'rin almashish oqibatlari (O'zbekiston misolida).....	37
3.1. Landshaftlarni muhofaza qilish masalalari va landshaftlar taraqqiyotini bashorat qilish.....	39
Xulosa.....	69
Foydalanilgan adabiyotlar.....	72

KIRISH

Mavzuning dolzarbligi: XX asrning ikkinchi yarmi Yer tarixida, insoniyat tarixida o'ziga xos alohida davrni tashkil qiladi. Bu davrda Yer yuzasida aholi sonining tez sur'atlar bilan ortib borishi, sanoat va qishloq xo'jaligining rivojlanishi, insonning kuchli texnika vositalaridan mehnat quroli sifatida foydalanishi va fanning bevosita ishlab chiqarish kuchlariga aylanishi insonning tabiiy resurslarga bo'lgan ehtiyojini orttirib yubordi. U tabiiy resurslardan faol foydalana boshladi va yerga, tuproqqa, suvga, havoga, o'simlikka va hayvonot dunyosiga kuchli ta'sir ko'rsata boshladi. Natijada, inson tabiiy resurslarning tez sur'atlar bilan kamayib ketishiga, atrof-muhitning ifloslanishiga, tabiat komponentlari orasidaga mutanosiblikning buzilishiga, qolaversa o'zining salomatligiga va hayoti uchun xavfli bo'lgan salbiy oqibatlarining yuzaga chiqishiga ham sababchi bo'lib qolmoqda. Inson va tabiat o'rasidagi o'zaro munosabatlarning yildan yilga keskinlashib borishi, tabiat qonuniyatlarini chuqur bilishni, tabiiy resurslardan tejab-tergab ilmiy, asoslangan holda foydalanishni talab etadi. Bu esa tabiiy ekologo-geografik bilimlarni chuqur egallashni taqazo etadi. Landshaftshunoslik fani tabiiy geografiyaning muhim bir qismi sifatida kishilik jamiyatining amaliy talablariga bog'liq holda shaklandi va rivojlanib kelmoqda. U inson bilan tabiat o'rtasidagi o'zaro aloqalar samaradorligini oshirishning ilmiy asoslarini yaratish va haqiqiy madaniy landshaftlarni barpo qilishining qoida va usullarini ishlab chiqish bilan shug'ullunadi. Insonlar ma'lum bir tabiiy landshaftlarda yashab, uni o'z ehtiyojlariga moslab urbolandschaftlar darajasigacha o'zgartiradilar. Insonning ta'siri landshaftning imkoniyatlaridan oshib ketsa, undagi muvozanat buziladi. Natijada landshaft butunlay o'zgarishi hatto yo'q bo'lib ketishi mumkin. Landshaftdagi o'zgarishlar o'z navbatida insonlarga ham kuchli ta'sir ko'rsatadi. Shuning uchun tabiatni muhofaza qilishning asl mohiyati va maqsadiga ko'ra landshaftlarni muhofaza qilishdir. Hozirgi vaqtda yer yuzida inson ta'siriga uchramagan tabiiy landshaftlar kam qoldi. Inson ta'sirida o'zgartirilgan landshaftlar antropogen landshaftlar, deyiladi. Antropogen landshaftlar bajaradigan funksiyalari (qishloq xo'jaligi landshaftlari, sanoat landshaftlari, shahar landshaftlari va boshqalar) va o'zgarish xarakteriga (kam

o'zgartirilgan, kuchli o'zgartirilgan) ko'ra farqlanadi. Yer yuzidagi landshaftlarning 60% dan ortig'i antropogen landshaftlarga kiradi. Inson tomonidan ilmiy asosda o'zgartirilgan, tartibga solib turiladigan, eng yaxshi yashash sharoitlari va iqtisodiy samaradorlikni ta'minlaydigan madaniy landshaftlar ham mavjud.

Tabiiy geografiyaning landshaftshunoslik sohasiga taaluqli ko'pgina muammolar hanuzgacha o'zining murakkabligi va munozaraliligi bilan ajralib turibdi. Jumladan, tabiiy landshaftlarning urbolandshaftlar bilan o'rin almashinishi masalalari hali puxta ishlab chiqilmagan. Shuning uchun tabiiy landshaftlarning urbolandshaftlar bilan o'rin almashinishi oqibatlarini kompleks o'rganib, tahlil etish ilmiy-nazariy va amaliy ahamiyatga egadir.

Tadqiqotning maqsad va vazifalari: Tadqiqotlarimizning asosiy maqsadi –Tabiiy landshaftlarning urbolandshaftlar bilan o'rin almashinish oqibatlarini kompleks o'rganish. Asosiy maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalarni bajarish kerak bo'ladi:

- O'zbekistondagi tabiiy landshaftlar va ularning xususiyatlarini o'rganib tahlil etish;

- Urbolandshaftlar haqida umumiy ma'lumotga ega bo'lish;

- Shaharlar rivojlanishining tabiiy muhit bilan aloqadorligini o'rganish;

- Antropogen landshaftlar va ularning xilma-xilligini o'rganish;

- Landshaftlarni muhofaza qilish masalalari va landshaftlar taraqqiyotini bashorat qilish;

Tadqiqot davomida mamlakatimizdagi tabiiy landshaftlarning urbolandshaftlar bilan o'rin almashinish oqibatlari yana bir bor ekologik xususiyatlari bo'yicha kompleks o'rganishga harakat qilindi.

- O'zbekistondagi tabiiy landshaftlar va ularning ekologik-geografik xususiyatlari kompleks o'rganildi hamda inson ehtiyojlariga mos ravishda shakllanishini ta'minlovchi qonuniyatlar aniqlandi;

- Urbolandshaftlarga oid ma'lumotlar to'plandi;

- Shaharlar rivojlanishining tabiiy muhit bilan aloqadorligi o'rganildi;

-Antropogen landshaftlar va ularning xilma-xilligi o'rganildi;

-Landshaftlarni muhofaza qilish masalalari va landshaftlar taraqqiyoti o'rganildi;

Bitiruv malakaviy ishining tarkibi va hajmi: Bitiruv malakaviy ishi kirish qismi, 3 ta bob, xulosalar va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat.

Ishning umumiy hajmi 73 betdan iborat bo'lib, unda 5 ta jadvallar va 2 ta rasmlar tasvirlangan. Adabiyotlar ro'yxati 30 nomdan tashkil topgan bo'lib, shundan 15 tasi chet el adabiyotidir. Shuningdek, 6 ta internet saytlari manzili ham ko'rsatilgan.

I bob. O'zbekistondagi tabiiy landshaftlar va ularning xususiyatlari

Landshaft so'zi aslida nemischa bo'lib, (Land-yer va schaft-o'zaro aloqadorlik va bog'liqlikni aks ettiruvchi suffiks), umumadabiy tilda manzara, joyning ko'rinishi degan ma'noni anglatadi.

Landshaft atamasi geografiyaga dastavval deyarli bir vaqtda A.A. Borzov, L.S. Berg, I.M. Krashennikov, L.F. Morozovlarning ilmiy ishlari orqali tabiiy geografik kompleks so'zining sinonimi sifatida kirib keldi. Keyinchalik landshaft tushunchasini chuqurlashtirish va uning ta'rifini mukammallashtirish jarayonida tabiiy geograflar uch guruhga bo'linib ketishdi.

Birinchi guruh tabiiy geograflarning fikricha, landshaft ham xuddi relyef, iqlim, tuproq, o'simlik tushunchalari kabi umumiy tushunchadir. Bu holda landshaft atamasi xohlagan ko'lamdagi tabiiy geografik komplekslarga nisbatan, ularning katta kichikligidan qat'iy nazar ishlatilishi mumkin. Bu tushuncha tarafdorlari F.N. Milkov, D.L. Armand, Yu.K.Yefremov, V.I. Prokayev kabilar fikricha, landshaft bizning ko'z o'ngimizda tarixiy shakllangan va uzluksiz rivojlanishda bo'lgan u yoki bu geografik kompleks qiyofasida namoyon bo'lgan o'zaro bog'liq va aloqador bo'lgan narsa, hodisalarning yig'indisidir.

Landshaftga berilgan ushbu ta'rifdan ko'rinib turibdiki, landshaft ham, tabiiy geografik kompleks ham ikkalasi bir narsadir. Mualliflarning fikriga ko'ra tabiiy geografik kompleks so'zi aniq ifodaga egaligiga qaramay, atama sifatida noqulay. Shuning uchun tabiiy geografiya kompleks so'zining ma'nosini anglatadigan, ammo qisqagina va ishlatishda qulay bo'lgan landshaft atamasidan foydalangan ma'quldir. Bu holda "landshaft qobig'i" atamasi "geografik qobiq" atamasining sinonimi sifatida ishlatilmoqda.

Ikkinchi guruh geograflar ta'kidlashicha, landshaft ma'lum bir hududni egallagan, o'ziga xos xususiyatga ega bo'lgan regional birlikdir. Masalan, N.A. Solnsev landshaftni asosiy geografik birlik deb qaraydi va geologik tuzilishi, relyef shakllari, yer osti va usti suvlari, mikroiklim, tuproq xillari, fito va zoosenozalari o'zaro bog'liq bo'lgan birikmalari qonuniy va tipik qaytalanib turadigan genetik jihatdan bir butun hududni landshaft deb ataydi.

Landshaftning ta'rifini boshqacharoq va qisqaroq qilib A.G. Isachenko quyidagicha ta'riflaydi: " Landshaft-mahalliy ko'lamda geotizimlarning o'ziga xos yig'indisidan iborat bo'lib, o'zining zonal va azonal belgilari bo'yicha bir butun hamda genetik jihatdan yaxlit geotizimdir". Uning fikricha, landshaft o'zidan kichik geotizimlar yig'indisidan iborat bo'lishi bilan bir vaqtda o'zidan katta va murakkabroq tuzilgan geotizmning bir qismi bo'lib xizmat qiladi. Shuning uchun landshaftlarning hosil bo'lishini geografik qobiqning rivojlanishi va tabaqalanishining natijasi deb qarash kerak. Undan tashqari landshaft tabiiy geografik komplekslarning taksonomik tizimida shunday bir pog'onani egallaydiki, u o'zining azonal va zonal xususiyatlari bo'yicha bir butundir. Demak, tabiiy geografik rayon rayonlashtirishning eng kichik va asosiy birligidir. A.G. Isachenko fikricha, landshaft va tabiiy geografik rayon ikkalasi bir narsadir. Bu holda landshaft bir konturlidir. Yer yuzasida bir landshaft bir marta uchraydi.

Uchinchi guruh geograflar landshaft-tipologik birlikdir degan tushuncha tarafdorlaridir. Ular landshaftlarning nisbatan bir xilligi tushunchasiga asoslanadilar. Bunda landshaft ma'lum xarakterdagi hudud yoki joy deb qaraladi. Bundan tashqari, landshaft tabiiy komponentlar (geologik tuzilishi, relyef, tuproq, o'simlik va h.k.) ning dialektik birligi, majmuasi deb, hamda nisbatan bir xil bo'lgan tabiiy geografik kompleks deb qaraladi. Landshaftlar ularning hududiy tarqalishidan qat'iy nazar, xususiyatlariga qarab aniqlanadi.

Landshaftga nisbatan bunday ko'z qarashning faol targ'ibotchisi bo'lgan N.A. Gvozdet'skiyning aytishicha, landshaft-tabiiy geografik kompleksning turi, kichik turi, xilidir. Masalan, geomorfologiyada relyef turi, tuproqshunoslikda tuproq turi, xili, tushunchalari qaysi ma'noda ishlatilsa, tabiiy geografiyada ham shunday ma'noda ishlatilishi kerak. Masalan, dasht tuproqlari deyilgandek, dasht landshaftlari deb aytish mumkin. Landshaft tipologik birlik sifatida katta-katta maydonlarni ham yoki kichik joyni ham egallashi mumkin. Bir xildagi yoki bir turdagi landshaft ma'lum hududda qayta-qayta uchrashi, ya'ni ko'p konturli bo'lishi mumkin. U yoki bu landshaftning tarqalish areali xuddi u yoki bu tuproq yoki relyef turining tarqalish areali kabi uzuq-yuluq bo'lishi mumkin. Ana shunday

landshaftlarning ma'lum bir yig'indisi tabiiy geografik rayonlarni tashkil qiladi. N.A. Gvozdetskiy fikricha, tabiiy geografik regional birliklar va landshaft tipologik birliklari ikki xil tizimdagi birliklardir. Ular geografik qobiqning tabiiy geografik tabaqalanishini o'rganishdagi ikki xil yondashishning natijasidir.

Landshaftlar regional birlik deb qaralganda ular orasidagi har xillikka ko'proq e'tibor berilsa, tipologik birlik deb qaralganda ularning nisbatan bir xilligiga e'tibor beriladi.

Landshaft tushunchasiga nisbatan yuzaga kelgan bu uch xil ko'z qarashni landshaftshunoslikda hosil bo'lgan uch yo'nalish desa ham bo'ladi.

Yuqorida keltirilgan fikrlarga xulosa qilib aytganda landshaft genetik jihatdan bir butun bo'lgan geotizimdir. U bir xil geologik tuzilishi, bitta relyef turi, bir xil iqlimi hamda faqat shu landshaftga xos bo'lgan, dinamik jihatdan bog'liq bo'lgan urochishelar yig'indisidan iboratdir. Landshaft bir jihatdan qaraganda zona, provinsiya, okrug, rayon kabi regional geotizimlarni tashkil qiluvchi eng oddiy geotizimdir. U geografik qobiqning eng oddiy va eng kichik birligi bo'lsa, ikkinchi jihatdan o'zidan kichik bo'lgan urochishe, fatsiya kabi qismlar va oddiy geotizimlar bog'lamidan hosil bo'lgan murakkab ko'p yarusli va dinamik geotizimdir. Landshaft qo'shni landshaftlar bilan modda va energiya almashinishi orqali doimo o'zaro ta'sirda bo'lib turadigan ochiq geotizimdir.

Mamlakatimizda quyidagi landshaftlarni tafovut qilish mumkin:

- O'zbekiston hududi cho'l mintaqasi landshaftlari
- O'zbekiston hududi adir mintaqasi landshaftlari
- O'zbekiston hududi tog' mintaqasi landshaftlari
- O'zbekiston hududi yaylov mintaqasi landshaftlari
- O'zbekiston hududi antropogen landshaftlari

O'zbekiston hududi cho'l mintaqasi landshaftlari va ularning ekologik asoslari:Ma'lumotlarga ko'ra hozir cho'l va chalacho'llar 4,7 mlrd ga ni egallaydi. Quruqlikning 1/3 qismini ishg'ol etgan bunday joylarda dunyo aholisining 15 foizi yashaydi.

Cho'l zonasi o'ziga xos tabiiy kompleks bo'lib, Yer sharining mo'tadil, subtropik va tropik iqlim mintaqalaridagi o'ta qurg'oqchil kontinental iqlimli hududlarda vujudga kelgan. Cho'llarning paydo bo'lishi va rivojlanishi sayyoramiz geografik qobig'ining zonalligi bilan bog'liqligi aniqlangan. Zonallik esa yer yuzida issiqlik va namlikning bir me'yorda taqsimlanmaganligini mahsulidir. Ayrim olimlar yuqoridagilar bilan birga orografik to'siqlar, subtropik kengliklarda yil davomida yuqori atmosfera bosimini hukmronligi, sovuq dengiz oqimlarini materik sohillariga ta'siri kabi omillar ham cho'llarni shakllanishida yetakchi rol o'ynaydi, deb hisoblaydilar.

O'rta Osiyo hududida cho'llarning shakllanishi alp burmalanishiga borib taqaladi. Kaynazoy erasining neogen davrida sodir bo'lgan alp burmalanishi natijasida o'lka janubidagi Pomir, Hindiqush, Paropamiz, Safedko'h, Bandi Turkiston, Kopetdog' tog'lari ko'tarilgan. Mazkur tog'lar Hind okeanidan keladigan iliq va sernam havo massalarini to'sib, mintaqada arid zonani hosil bo'lishiga sababchi bo'lgan.

O'rta Osiyo cho'llarida XX asrning 20-30 yillarida kompleks tadqiqotlar olib borgan yirik olimlar D.N. Kashkarov va E.P. Korovinlar ta'biri bo'yicha **cho'l**-geologik va biologik jihatdan yaxlit tabiat kompleksi bo'lib, uning hosil bo'lishida yagona sabab-quruq iqlimdir. Bu olimlar cho'lning shakllanishida ikki omil-namlikning tanqisligi, ya'ni "minimum omili" va juda yuqori harorat, ya'ni "maksimum omili" kuchli ta'sir ko'rsatadi, deb e'tirof etishgan.

Cho'lshunos olimlar A.G.Boboev va Z.G.Freykin fikricha, **cho'l** deganda juda quruq va jazirama iqlimli, nihoyatda kam yog'inli va nisbatan siyrak o'simlik qoplamiga ega bo'lgan tabiiy hududlar tushuniladi. Bunday joylarda atmosfera yog'inlarining (300 mm gacha) kamligi va ularni yil fasllari bo'yicha notekis taqsimlanganligi xos, shuningdek, tushadigan yog'inga ko'ra bug'lanish bir necha marta yuqori. Cho'llarda doimiy oqar suvlar shakllanmaydi, quruq o'zanlarni esa vaqtinchalik oqar suvlar hosil qilgan, yer osti suvlari biroz sho'rroq bo'ladi. Ana shunday iqlimiy xususiyatlarga ega tabiat zonasi Markaziy Osiyoning katta qismini ishgo'ol etgan. U g'arbda Kaspiy dengizi qirg'oqlaridan sharq va janubi-sharqda

Jung'oriya Olatovi, Tyanshan va Pomir-Oloy tog' tizimlarigacha, shimolda taxminan 48⁰ sh.k. dan janubda Kopetdog' va Paropamiz tog' oldilarigacha cho'zilgan. Cho'l va chalacho'llar o'lkani 65,3 foizini egallab, ularning maydoni qariyb 211 mln gektarga teng. Respublikalar bo'yicha tahlil qilsak, Turkmaniston hududining 80 foizdan ortig'ini, O'zbekistonni 70 %, Qozog'istonning 27 foizini cho'llar egallagan.

Akademik Q.Z. Zokirov Zarafshon vodiysi o'simliklarini uzoq yillar o'rganishlari natijasida vodiya tekislikdan baland tog'largacha 4 ta mintaqani-cho'l, adir, tog', yaylovga ajratishni taklif etdi va shu bo'linish butun O'zbekiston, hatto O'rta Osiyo uchun ham tadbiq etish mumkinligini ko'rsatdi.

1-jadval

O'zbekiston hududining mintaqalarga bo'linishi

(Q.Z. Zokirov bo'yicha, 1955)

t/r	Mintaqalar	Ming ga	%
1	Cho'l	27594,8	61,16
2	Adir	2479,7	9,5
3	Tog'	961,9	2,13
4	Yaylov	701,8	1,55
5	Ekin ekiladigan yerlar (antropogen landshaftlar)	11577,7	25,66
Jami		45115,9	100,0

O'zbekiston hududida mo'tadil va subtropik cho'llar zonasi tarkib topgan. Mo'tadil mintaqa cho'llariga Ustyurt platosi, Amudaryo etagining shimoli, subtropik cho'llarga esa, Amudaryo deltasi, Qizilqum, Quyi Zarafshon, Qashqadaryo etagidagi tekisliklar kiradi. Ular orasidagi chegara Amudaryo deltasining shimoliy chekkasi orqali Qizilqumga va undan taxminan Janadaryo quruq o'zani yo'nalishi bo'yicha o'tadi. Shimoliy va janubiy cho'llar tabiatida qator o'xshashliklar bilan birga kattagina tafovutlar ham mavjud. Bu tafovutlar yilning iliq va sovuq davrlarida ko'zga yaqqol tashlanadi. O'z navbatida, mutaxassislar cho'llarni mutloq balandligiga ko'ra 2 guruhga-250 m gacha

bo'lgan pastki cho'l va 250-400 metrli yuqori cho'llarga ajratadilar. Yuqoridagi jadvaldan ko'rinib turibdiki, O'zbekiston hududining 61,16 foizini cho'llar tashkil etadi. Agar bunga arid mintaqadagi ekin maydonlarini qo'shib hisoblasak, cho'llar maydoni 70 foizdan ortadi. Z.M. Akramov, A. Abdulqosimov, I.Q. Nazarov ham respublikaning 70 foizdan ortig'ini cho'llar egallagan, deb e'tirof etishgan. Cho'l sharoitiga ega hududlar respublikaning g'arbiy va markaziy qismlarini egallab, ularga Ustyurt, Qizilqum, Quyi Zarafshon, Qarshi cho'li, Mirzacho'l va boshqalar kiradi. Cho'l zonasi mamlakatimizni boshqa tabiiy geografik zonalaridan (adir, tog', yaylov) ajralib turadi. Cho'llarning quyidagi xususiyatlarini ko'pchilik cho'lshunos olimlar-D.N. Kashkarov, E.P. Korovin, A.G. Boboev, M.P. Petrov, B.A. Fedorovich, Z.G. Freykin, V.A. Kovda, A.A. Abdulqosimov, L.A. Alibekov, I.Q. Nazarov, I.A. Hasanov, S.B. Abbosov va boshqalar e'tirof etishgan. Arid o'lkalarning ushbu xususiyatlari undagi xo'jalik tarmoqlari va hududiy tarkibiga o'z ta'sirini ko'rsatadi.



1-rasm. Cho'l zonasining o'ziga xos xususiyatlari

D.N. Kashkarov va E.P. Korovinlar cho'llarni o'ziga xos tabiat kompleksi sifatida tushinib, ularni o'rganishda kompleks yondashuv zarurligini aytgan, ya'ni

cho'llarni o'rganishda tabiiy geografik sharoitni va bu sharoitning cho'ldagi hayot faoliyatiga ta'sirini o'rganish lozimligini ta'kidlagan.

Har qanday tabiiy sharoit undagi iqlim, suv, tuproq, o'simlik va hayvonot dunyosining shakllanishida muhim rol o'ynaydi. Shu bilan birga tabiiy sharoit insonlar va ularning turmush tarziga, joyning xo'jalik tarmoqlari (sanoat, qishloq xo'jaligi, transport), manzilgohlarni tashqi qiyofasini (ko'kalamzorlashtirish va obodonlashtirishni) yaxshilashda ham munosib ulush qo'shadi. Chunonchi, ishlab chiqarish kuchlarini joylanishi va rivojlanishida tabiiy muhitni o'rni beqiyos. Arid hududlarda "iqtisodiy landshaft" notekis, ya'ni vohalarda zich, cho'llarda esa siyrak joylashuv xosdir. Masalan, O'zbekiston iqtisodiy kartasiga nazar salsak, Xorazm, Buxoro, Navoiy, Qashqadaryo, Jizzax vohalarida ishlab chiqarish kuchlari zich, Ustyurt, Qizilqum, Mirzacho'l, Qarnob, Markaziy Farg'ona, Malikcho'l, Qarshi cho'li kabi mintaqalarda esa siyrak joylashganligini ko'ramiz. Aholi joylashuvida ham katta tafovutlar bor. Agar aholi yashashi uchun qulay bo'lgan vohalarda aholi zichligi yuqori bo'lsa, cho'l-yaylov hududlarda aksincha past. Masalan, Buxoro viloyatida aholining o'rtacha zichligi 39,4 kishi bo'lgani holda, u vohalarda 337,6 kishini, cho'llarda esa atigi bir kishiga teng.

Maydoni asosan cho'l va chalacho'llardan iborat bo'lgan mamlakat va hududlarda ham aholi zichligi yuqori emas. Jumladan, Qozog'istonda 6,0, Turkmanistonda 11,0, Chad Respublikasida 8,0, Namibiyada 3,0, Mongoliyada 2,0, Qoraqalpog'iston Respublikasida 9,6, Navoiy viloyatida 7,5 kishiga teng. Dunyoning arid rayonlari ichida aholisi eng zich yashaydigan joy Hindistonning Radjastxan shtatidir. Asosan Tar cho'lida joylashgan bu shtat aholisining o'rtacha zichligi 1 km² ga 100 kishiga etadi.

O'zbekiston hududini tabiiy geografik sharoiti nuqtai nazaridan ikki qismga: cho'l hamda tog' va tog'oldi zonasiga bo'lish mumkin. Cho'l zonasiga Qoraqalpog'iston Respublikasi, Navoiy, Buxoro, Qashqadaryo, Sirdaryo, Jizzax, Xorazm viloyatlari kiradi.

Cho'l sharoitida shaharlarning vujudga kelishi va rivojlanishi, eng avvalo suv resurslariga bog'liq. Shu bois, suv manbalari yetarlicha bo'lgan arid

hududlarda ham yirik shaharlar tashkil topgan. Bunga misol qilib Nil deltasida joylashgan-Qohira, Mesapatamiyadagi-Bog‘dod shaharlarini keltirish mumkin. Aksincha, suv resurslari cheklangan Arabiston, Turkmaniston, Mug‘uliston singari davlatlarda hanuzgacha yirik shaharlar shakllanmagan. O‘zbekistonning ham cho‘l zonasidagi daryo bo‘ylarida Qarshi, Nukus, Navoiy kabi kattaroq shaharlar shakllangan bo‘lsa, suv manbalaridan uzoqlashgan sari manzilgohlar soni va aholisi kamayib boradi.

Cho‘l zonasida shaharlarning shakllanishi va rivojlanishiga uch omil-suv, geografik o‘rin va tabiiy resurslarning roli benihoyat katta. Buxoro shahrining vujudga kelishida Zarafshon daryosi va uning tarmoqlarining muhim ahamiyat kasb etgan. Mashhur tarixchi Narshaxiy Buxoroning hozirgi o‘rnida suv mo‘l bo‘lganligini, botqoqlik va ko‘l-to‘qay landshaftlaridan iboratligini ta’kidlaydi. Keyinchalik Zarafshon daryosi suvining kamayib borishi tufayli ko‘llar sayozlanib, qisqarib boradi va ulardagi to‘qayzorlarda qurg‘oqlashuv ro‘y beradi. Ushbu erlarni insonlar tomonidan o‘zlashtirilishi va ularning dehqonchilik o‘chog‘iga aylantirilishi oqibatida madaniy qatlamlar vujudga kelgan. Buxoro obod hududga aylanishi bilan geografik o‘rni qulaylashib, u o‘z atroflari uchun markaz vazifasini bajara boshladi. Shundan so‘ng bir necha hukmdorlar davlat poytaxti qilib Buxoroni tanlagan.

O‘zbekiston hududi adir mintaqasi landshaflari va ularning ekologik asoslari:O‘zbekiston territoriyasining dengiz satxidan 500 m.dan-1200 m.gacha bo‘lgan joylar adir mintaqasiga kiradi. Respublikamizning barcha tog‘ etaglari, chunonchi, Toshkent, Farg‘ona, Andijon, Namangan viloyatlarining ko‘pgina qismi Yangiyer, Jizzax, Qarshi shaharlarining atroflarida Shahrisabz, Denov, Nurota, G‘allaorol , Bo‘stonliq kabi tumanlarining asosiy qismini adir mintaqasiga kiritish mumkin. Adir mintaqasining eng xarakterli belgisi relyefning notekisligi bo‘ztuproqdan iboratligi, o‘simliklar qoplamining rang-barangligi bo‘lib, umuman tog‘ etaklaridagi barcha maydonlar shu mintaqaga kiradi. Adir-tog‘ etaklaridagi tuprog‘i och tipik va to‘q bo‘z tuproqdan iborat. Tashqi tomondan qaraganda qizg‘ish ko‘rinadi. Qo‘lga olib ezilganda mayin, yumshoq, qattiq bosganda

yopishib qoladi. Cho'l mintaqasiga qaraganda tuproqning tarkibidagi gumus ancha yetarli. Ayrim hududlarda shag'al va qattiq toshlar ham aralashgan. Adir mintaqasi adir iqlimi hisoblanib, cho'l mintaqasiga nisbatan ancha salqin. O'rtacha yillik harorati 12-30⁰ janubiy rayonlarda biroz baland. Yoz oylarida harorat 30-45⁰ ga ko'tariladi, yozda deyarli yomg'ir yog'maydi, tez-tez shamollar esib turadi. Cho'l zonasiga yaqin bo'lganidan hatto garmsel esib turadi. Asosiy yog'in qish va bahorda yog'ib qisman kuzda ham tushishi mumkin. Yerda qor 2-3 oygacha saqlanadi. Izg'irin bo'ronli kunlar bo'lib turadi. Tog' zonasiga yaqin bo'lganidan uning ta'siri katta. Bahor va kuz paytlari ham deyarli salqin. Yog'in miqdori cho'l zonasiga nisbatan ko'p bo'ladi. Pastki adirlarda 500-550 mm ga etadi. Shu sababdan ham havoning nisbiy namligi ancha baland. Bu zonada sug'orilgan yerlar, madaniy ekinlar maydoni ham keng. Bunda mikroiqlim tevarak atrofga ancha ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli adir zonasi o'simliklari dunyosiga boyligi hamda dehqonchilik va chorvachilik uchun qulayligi bilan ajralib turadi. O'zbekiston adirlari haqiqatdan ham o'simliklarga boy. Bu zona O'zbekistonning asosiy lalmikor yerlari hisoblanadi. Ko'pgina yerlarda g'alla, arpa, bug'doy ekiladi. Dehqonchilikda foydalanish qiyin bo'lgan notekis yerlar suv kam bo'lgan adirlar chorvachilikda keng foydalaniladi. Adir mintaqasi tuprog'i, iqlim rel'efi dengiz sathidan balandligi va o'simliklar qoplamiga qarab ikkiga: pastki va yuqorigi adirlarga bo'linadi.

Pastki adir tuprog'i och va tipik bo'z tuproqdan iborat. Bunga dengiz sathidan 500-800 m balandlikkacha bo'lgan yerlar kiradi. Rel'efi tekis qirlardan iborat. Yuqori cho'l bilan tutash bo'lganligi uchun ham iqlimi keskin kontinental bo'lib, undan keskin farq qiladi. Yozi issiq, qishi sovuq. Baxor va qishda yog'ingarchilik bo'ladi. Havosining namligi tuproqning unumdorligi yer osti suvlarining yer yuzasiga yaqinligi o'simliklar qoplami xam xilma xildir. Pastki adirning asosiy o'simliklarga erta baxorda yashil gilam hosil qiladigan rang va qo'ng'irboshdan iborat. Pastki adirda rang, qo'ng'irbosh, yetmak, qoqio't, qo'ypechak, mingboshi, qo'ziquloq, isfarak, karrak kabi o'simliklar eng ko'p tarqalgan.

Yuqori adirlarga dengiz sathidan 900-1200 m balandlikkacha bo'lgan yerlar kiradi. Respublikamizning anchagina teritoriyasi yuqori adirlarda joylashadi. Bu yer tog' mintaqasiga yaqin bo'ladigan baland qirlar tuproq yerlar, chala buta va buta o'simliklarining ko'pligi bilan xarakterlanadi. Yuqori adirlarning tuprog'i to'q bo'z tuproqli bo'lib shag'alli va tosh aralash yerlar ko'p uchraydi. Tuprog'i unumdor, yog'in sochinli joyga birdan tushmasligi uning pastga oqib ketishi yozgi issiqlikning kuchli ta'siri tufayli bu yerlarda efemer va efemeroidlar juda kam uchraydi. Mavjud tabiiy o'simliklardan ayrim turlar juda kamayib ketgan. Faqat odam chiqishi qiyin bo'lgan qiyaliklarda o'simliklar siyrak holda saqlanib qolgan. Iqlimiga ko'ra O'zbekistonning shimolidagi yuqori adirlar farq qiladi. Ya'ni sharqiy adirlar, baland tog'larga yaqin bo'lib, havosi sookin va sernamdir. Shimoliy adirlar esa, Qizilqum, Qoraqum cho'llariga yaqin. Shuning uchun havosi quruq, yog'ingarchiligi kam bo'ladi. Bu hol o'sha joyning o'simliklariga ma'lum darajada ta'sir qiladi.

Yuqori adirlar uchun muhim bo'lgan xarakterli o'simliklarga teresken, oqshuvoq, gulxayri, ajriq, rovoch mansub.

Adir cho'l landshaftidan quyidagi belgilari bilan farq qiladi:

1. Cho'lga nisbatan tuprog'ining unumdor bo'lishi;
2. Yog'ingarchilikning miqdori 500-600-1000 mm gacha yetishi;
3. Quyosh energiyasining radiatsiyasi asta sekinlik bilan kuchaya boradi;

O'zbekiston hududi tog' mintaqasi landshaftlari va ularning ekologik asoslari: O'zbekiston hududi deyarli barcha vertikal zonalardan tashkil topgan. Uning hududida cho'l, adir, tog', yaylov zonalari mavjud. Ular Farg'ona vodiysida ham o'z aksini topgan. Umuman vertikal zonalarning tasnifi azaldan geobotaniklarni, fiziograflarni, tuproqshunos va zoologlarni qiziqtirib kelgan. O'rta Osiyoda Tosh DU tashkil bo'lishi munosabati bilan kelgan bir qator olimlar O'rta Osiyo tabiiy resurslarini har tomonlama o'rganish bilan ularning vertikal tik mintaqalar bo'yicha tarqalishiga ham, ularning o'sha joyga aloqadorligiga ham e'tibor berganlar. Shu boisdan Markaziy Osiyo tabiiy hududlarini vertikal tik mintaqalarga ajratganlar. M. V. Kultiatsev, M.G. Popov, E. P. Korovin, professor

Kashkarov kabi olimlarning har qaysisining vertikal tik zonalar bo'yicha sxemalari bor. Ularning barchasidagi kamchiliklar quyidagilardan iborat. Tog' mintaqasi Granitov taklifi bilan paski va yuqorigi mintaqalarga bo'lib o'rganila boshlagan. Tog'ning pastki qismi adir bilan chegaradosh bo'lgani uchun kirofilizatsiya kuchli, namgarchilik kam. Shuning uchun aksariyat tog' mintaqasining tog'-toshlari o'simliklari qurg'oqchilikka moslashgan bo'ladi. Bu yer uchun xos bo'lgan o'simliklar tikan bargli pechaklar, farg'ona shuvog'i, bargi qirqilgan shuvoq, izen. Butalardan toshga yopishib o'suvchi atirgullar, bug'doyiq kabi turlar tashkitl qiladi. Archazorga kirib borgan sari zirk, shilvilardan tashkil topgan va archazorlar aralashgan manzarani ko'rish mumkin. Tog'ning o'rta qismida dominant jamoa, sarv archa va Zarafshon archa qo'shma jamoalari. Siyrak holatda do'lana, zirk, shilvining turlari, nixoyat siyrak holda cheton kabilar shu archazorga yo'ldosh bo'ladilar.

Tog' mintaqasi o't o'simliklariga yorongul, Tyanshan otqulog'i, yovvoyi zig'ir, ligullariyani kiritish mumkin. Bular umumiy manzarani uchinchi qismini tashkil qiladi. Pastki yarus (qavat)da chim hosil qiluvchi g'alladoshlar va undan ham pastki qismda moxlar, lishayniklar asosiy pastki manzarani hosil qiladi.

Demak, tog'ning o'rta qismidagi manzarani ko'p qismli bo'lishi bu o'sha ekologik qulay muhitning natijasidan darak beradi. Tog' zonasining yuqori qismi subalb o'tloqlariga chegaradosh bo'lganligi uchun archazorning tarqalishi bilan tugaydi. Archazor ko'p joylarda tog' zonasining tugash joylari bilan ham tugaydi. Tog'ning yuqori qismi yanada qo'ng'irlashgan tuproqqa ega. U yerdagi hukmron landshaftlarga tashqi qiyofa beradigan asosiy daraxt-Turkiston archasidir.

Keyingi yillarda antropogen omillar ta'siri natijasida tog'ning ayrim elementlari inqirozga uchragan. Tog' mintaqasidagi dorivor o'simliklardan tog' datxoni, tog' jambili, kiyiko't, yulduzo't va archalarning aksariyat qismi "fizioterapevtlar" tomonidan vayron qilingan. Ular hosil qilgan o'simlik jamoalari tarkiblari o'zgarib ketgan. Archalar azaldan kesilib ularning orasidagi masofa 20-25 m ni tashkil qiladi. Ularning o'rniga ayrim dasht elementlari paydo bo'lgan. Aksariyat tog' mintaqani o'simlik tipi yoki landshafti bilan almashtirib

qo'yilmoqda. Ularning o'z sxemalarini tuzishda qo'llangan ko'p terminlar ko'pincha rus tilida bo'lib, maxalliy aholi tomonidan anglashinuvi qiyin bo'lgan. Shularni hisobga olgan holda K. Z. Zokirov birinchi bo'lib bir qancha fan, ayniqsa tabiiy fanlarni ma'lumotlarini mujassamlashtirgan holda mahalliy xalqqa tushunarli qilib, 1947 yilda O'rta Osiyo hududi tog' mintaqalarini ishlab chiqdi. 1956 yilda o'zlarining "Zarafshon vohasi flora va o'simlik qatlami" nomli ikki jildli monografiyasini ishlab chiqdi. Bu monografiyada o'zlarining fikrlarini vertikal mintaqalar zonalariga asoslangan holda bayon qildilar. U O'rta Osiyo tog' mintaqalarini 4 ta povestga ajratdi:

1. Cho'l mintaqasi 200-250 m.dan to 400-450 m.gacha
2. Adir mintaqasi 400-450 m.dan to 800-850 m.gacha
3. Tog' mintaqasi 800-850 m.dan to 2000-2500 m.gacha
4. Yaylov mintaqasi 2000-2500 m.dan to 3100 m.gacha bo'lgan zonalar.

Demak, tog' zonasi K. Zokirov sistemasi bo'yicha 800-850 m., ayrim joylarda 1200 m dengiz yuzasidan 2-5 ming m.gacha bo'lgan balandlikni egallaydi. Ekologik nuqtai nazardan tog' zonasi tirik mavjudotlar uchun eng qulay sharoitga ega bo'lgan zona hisoblanadi.

Akademik N. I. Vavilov ta'biri bilan aytganda tog' zonasi nafaqat yovvoyi o'simliklarning, balki madaniy o'simliklarning ham kelib chiqish manbai hisoblanadi. Yo. P. Korovinning fikricha tog' zonasi barcha ekologik elementlar nuqtai nazardan o'simliklarning o'sishi uchun eng qulay muhit bo'lgan zona hisoblanadi. Tog' mintaqasida iyun-sentabr oylari yog'insiz o'tadi. Lekin, Farg'ona vodiysida ko'rsatilgan oylarda ham vaqti-vaqti bilan yog'ingarchiliklar bo'lib turadi. Iyul oyida harorat 18-19°C gacha tushib ham ketadi. Tog' mintaqasida yog'ingarchilikning umumiy o'rtacha miqdori 700-800-1000 mm gacha bo'ladi. Tuprog'i ko'mirga boy. Qoratuproqni eslatadigan qo'ng'ir tuproqdan tashkil topgan. Shuning uchun tog' zonasi landshafti ko'pincha tropik, subtropik gorizontal mintaqalarning landshaftlarini eslatadi.

O'zbekiston hududi yaylov mintaqasi landshafti va uning ekologik asoslari: Respublikamiz territoriyasining dengiz sathidan 2700-2800 m va undan

baland bo'lgan barcha yerlari yaylov mintaqasiga kiradi. Yaylov mintaqasi Alp va Subalp o'tloqlaridan iborat. Uning xarakterli belgisi shuki, bu mintaqada buta va daraxtlarning o'sishi uchun sharoitning yo'qligidir. Yaylov deb atalishiga sabab shuki, bu yerlarda faqat yozda mol boqib foydalanishdir.

Yaylov mintaqasining tuprog'i och va to'q qo'ng'ir rangli bo'lib, qattiq tog' jinslaridan hosil bo'lgan, o'simliklardan ayniqsa mayin o'tlar ancha qalin qoplam hosil qiladi. Katta xarsang toshlar, qiyaliklar, quruq toshlardan iborat maydon ko'p uchraydi.

Yaylov mintaqasi tog'ning yuqori qismi bo'lib, uning yuqori qismi doimiy muzliklar ayrim joylardan tirik mavjudotlar yashamaydigan, o'smaydigan tog' qoyalari bilan chegaralangan.

Yaylovning umumiy iqlim sharoitini tinimsiz sovuq, shamollarning bir tomondan ikkinchi tomonga esishini, haroratning past darajada bo'lishi tuproqning ayrim joylarda kambag'al bo'lishi, yorug'likning qisqa bo'lishi uni "arktika"ga o'xshatadi. Lekin ayrim butalarning mavjudligi uni "arktika"dan farqlantiradi.

Lekin, bu yerdagi noqulay omillar ta'siri o'sha joydagi tirik mavjudotlarning hayotiy jarayonlarida o'zining aksini topgan. Masalan, Tyanshan qarag'ayi Farg'ona tog' tizmasida daraxt shaklida, yaylovda esa pakana bo'yli buta. Ko'pgina olimlar Turkiston archasini yaylovning birinchi bosqichi deb hisoblaydilar. Bizningcha yaylovning Turkiston archasi birinchi bosqichi bo'la olmaydi. Balki, tog'ning yuqori qismi asosiy landshaft hisoblanadi.

O'rta Osiyo yaylovlarida, shu jumladan Farg'ona vodiysi, Oloy tog' tizmasida manzara hosil qilib usuvchi o'simliklardan chala buta shaklidagi sug'uro'tlar, dorivor Farg'ona lolasi, karidaris tugunak ildiz boychechaklari, yovvoyi piyoz, qo'ng'irbosh.

Yaylov mintaqasi o'simliklar qoplamiga boy bo'lishiga qaramay, hanuzgacha undan qishloq xo'jaligida ham, sanoatda ham, shuningdek, boshqa sohalarda ham juda kam foydalaniladi.

Yaylov o'simliklari qoplami, ekologik sharoiti, iqlimi va boshqa belgilariga ko'ra pastki va yuqorigi yaylovlarga bo'linadi.

Pastki yaylov maydonining xarakterli tomoni mezofit-o'rtacha nam talab qiluvchi o'simliklar ko'pligidir. Bundan tashqari yer bag'irlab o'suvchi o'tlar, past bo'yli buta va chala butalar ko'p o'sadi. Pastki yaylovga dengiz sathidan 2700-2800 m dan to 3000-3200 m balandlikkacha bo'lgan yerlar kiradi. Tuprog'i och jigarrang va och qo'ng'ir rangdan iborat tuproq bo'lib, toshli, qoyali joylar ko'p uchraydi. Yerning yuza qismi ko'pincha boshqodoshlar va chim hosil qiluvchi o'simliklarning ko'pligi bilan xarakterlanadi. Bu joy yuqori tog' mintaqasiga yaqin bo'lganligidan o'simliklari, tuprog'i, iqlimi jihatdan unga o'xshab ketadi. Bu yerda sovuq kunlar ko'p bo'ladi. Yoz faslida biroz isiydi, bu davrda o'simliklar o'suv davrini tugata olmaydilar. Yog'ingarchilik kuzda oktyabr oylarida boshlanadi. Asosiy yog'in qish va bahorda bo'ladi. Pastki yaylov mezofit o'simliklar o'sishi uchun eng qulay joydir. Shuning uchun ham bu yer o'simliklar dunyosiga boydir. Masalan, O'rikarcha-sarvidoshlar oilasiga mansub, bo'yi 12-18 m ga yetadigan, ikki uyli daraxt, ba'zilarining bo'yi 2 m dan oshmaydi. May oyida gullaydi. Mevasi iyun, iyul oylarida pishadi. Asosan subalp o'simlik.

Chetan ra'noguldoshlar oilasidan, buyi 3-5 m ga yetadigan buta yoki daraxt. Tanasi qo'ng'ir, yosh novdalari sertuk, ko'm-ko'k yoki qo'ng'ir, mevasi avgust oyida pishadi. Uning yog'ochi chiroyli, mustahkam bo'lib, qurilish materiali sifatida keng foydalaniladi.

Yuqori yaylovga dengiz sathidan 3000-3200 m baland bo'lgan joylar kiradi. Bu maydonning o'simliklari boshqa joylardan farq qiladi. Tuprog'i to'q jigarrang, qo'ng'ir, yumshoq tuproqdan iborat. Tuproqning yuza qismi asosan chim hosil qiluvchi o'simliklar bilan qoplangan. Bu joylar ancha sernam bo'ladi. Yillik yog'in-sochin pastki yaylovga nisbatan 2-3 baravar ko'p. Bu yerlarda doimiy muzlik va qorliklarning mavjudligi, havoning nisbiy namligining 80-90 % atrofida turishi, toshlarning doimiy siljib, qulab turishi, bu yerdagi o'simliklar hayotiga o'ziga xos ta'sir etib turadi.

O'zbekiston hududi antropogen landshaftlari va ularning ekologik asoslari: Tabiiy va sun'iy landshaftlarning shakllanishi ma'lum bir davr o'tishi bilan xarakterlanadi. Albatta, tabiiy landshaftlarning hosil bo'lishi antropogen

landshaftlarga qaraganda sekin boradi. Uning shakllanishi uchun yillar, davrlar, eralar kerak. Lekin, shu bilan birgalikda uning tarkibi komponentlarga boy, chidamli hisoblanadi.

Landshaft tarkibini boyishi yoki uning keng arealga ega bo'lishini eng avvalo uning tarkibini tashkil qilgan komponentlarning hayotchanligiga bog'liq bo'lsa, ikkinchidan uning mahsuldorligiga bog'liq.

Sun'iy landshaftlarda ham shakllanish davridagi bir qancha qiyinchiliklarni ko'rish mumkin.

Inson ta'sirida Farg'ona vodiysida saqlab qolingan qum zonasining deyarli landshaftlari yo'qoldi. Qayroq suv ombori tashkil qilinishi evaziga Farg'ona vodiysi g'arbiy qismi tabiiy landshafti yo'qolib, uning o'rniga sun'iy to'qayzorlar, botqoqzorlar vujudga keldi. Inson ta'siri natijasida O'rta Osiyoda yagona O'sh oblasti Oloy tog' tizmasi shimolda Oq buyra daryosi yuqori qirg'og'ida ninabarglilar, teraklar va qayinlardan tashkil topgan sun'iy o'rmon landshaftlari tashkil qilindi. Keyingi vaqtlarda sanoat korxonalari chiqindilariga ma'lum miqdorda bo'lsa ham qarshiligiga chidaydigan daraxt va butalardan tashkil topgan sanoat landshaftlari tashkil qilinmoqda. Afsuski, bu borada mutaxassislar fikrlarini ko'pincha hisobga olmaydilar. Maqsad sanoat va ishlab chiqarish korxonalari va ular atrofidagi hududlarda kislorodga boy muhitni tashkil qilish. Shunday ekan bu hududlarda keng bargli daraxt va butalardan foydalanish zarur.

Antropogen landshaftlarni tasnivlashda ularni qishloq xo'jaligi landshafti, sanoat landshafti, subantropogen landshafti, o'rmon antropogen landshafti, madaniy landshaftlar kabi tiplarga bo'lish maqsadga muvofiq. Bulardan:

1. Qishloq xo'jaligi landshaftlari kishilarning ehtiyojiga yarasha tez hosil qilingan landshaftlar. Masalan, paxtazorlar, bug'doyzorlar, sabzavot ekinzorlar va ho kazo. Lekin, inson ta'sirida qishloq xo'jaligi landshaftlarini yaratuvchi tuproq nihoyatda eroziyaga uchraydi. Masalan, inson zamonaviy ilmiy texnikaviy qurollangan bo'lib, qishloq xo'jaligiga kirib olgan va har xil noorganik o'g'itlar, zaharli ximikatlar qo'llash evaziga tuproqda zaharli elementlar (qo'rg'oshin, simob, ftor) ko'payib ketdi.

Hisobsiz hosil orqasidan quvish tuproqni ishdan chiqishiga, turlanishiga, yemirilishiga olib keldi.

2. Sanoat landshaftlari, ayniqsa keyingi vaqtda urbanizatsiyaning kuchayishi natijasida keng avj olib ketdi. Bu sohada bir qancha yaxshi ishlar qilgan Farg'ona shahridagi al-Fargoniy tavalludi bilan amalga oshirilgan ishlar buning yaqqol misoli. Lekin, bu sohada quyidagi ma'lumotlarni ham unutmaslik kerak. Hozirgi vaqtda inson yer yuzidagi quruqlikning 55 % idan foydalanadi. Har yili qurulish tog' ishlar sababli 50-70 kv km. Yer yalang'och bo'lib turlanib kelmoqda.

Hozir 500.000 kimyoviy birikmalar qo'llaninmoqda. Shulardan 12 ming tasi esa zaharli gazsimon, suyuq va qattiq moddalar bo'lib Atmosfera, Gidrosfera, Litosferani ifloslantiradi.

3. Suv har xil sohalarda ishlatiladi. Masalan,
 1 t bug'doy yetishtirish uchun 1,5 t suv sarflanadi;
 1 t sholi yetishtirish uchun 12000 t suv sarflanadi;
 1 t paxta yetishtirish uchun 5000-6000 t suv sarflanadi;
 Hozirgi vaqtda aholi har yili taxminan 3000 km³ ichimlik suvini iste'mol qiladi.

4. Madaniy landshaftlar. Ular ham ikki xil:

1. Madaniy-tabiiy antropogen landshaftlar; 2. Madaniy antropogen landshaftlar;

II bob. O'zbekistonda urbanizatsiya jarayonlari

2.1. Urbolandschaftlar haqida umumiy ma'lumot

«Urban»-shahar, «zatsiya»-jarayon demakdir. Shu ma'noda urbanizatsiya mamlakat yoki boshqa hududlarning shaharlashuvini anglatadi. U o'ta murakkab, ijtimoiy-iqtisodiy va butun dunyoga xos global jarayondir. Biroq uning geografik jihatlari ham kam emas, chunki urbanizatsiya turli mamlakat va rayonlarda o'zgacha sodir bo'lmoqda.

Urbanizatsiya murakkab hodisa ekanligi tufayli uni faqat bitta mezon, ko'rsatkich bilan ifodalash, o'lchash mumkin emas. Ammo, shunday bo'lsada, barcha uchun qulay bir o'lchov kerak. U ham bo'lsa mamlakat va boshqa hududlar aholisining qanchasi, qancha qismi shahar joylarda yashashi, ulushi, nisbiy hissasidir. Masalan, O'zbekiston Respublikasida bu ko'rsatkich 38%, Tojikistonda-32%, Afg'onistonda-19%, Turkmanistonda-48% va x.k. Rivojlangan mamlakatlarda urbanizatsiya ko'effitsienti 90 va undan ortiq foizni tashkil etadi.

Urbanizatsiyaning umumiy ko'rsatkichi bilan mamlakat iqtisodiyotining rivojlanganlik darajasi va uning tarkibiy tuzilishi orasida ma'lum aloqadorlik bor. Chunonchi, agar urbanizatsiya ko'effitsienti taxminan 70-75 va undan ortiq bo'lsa, u holda mamlakat sanoat jihatidan yuksak darajada rivojlangan industrial mamlakat hisoblanadi; 50-70%-bu ham rivojlangan, milliy iqtisodiyoti industrial-agrar; 30-50%-rivojlanayotgan agrar-industrial va 30 foizdan past bo'lsa, sust rivojlangan agrar mamlakat holatida bo'ladi.

Ammo, shuni alohida ta'kidlash joizki, urbanizatsiyaning yuqoridagi ko'rsatkichi hamma vaqt va hamma joylarda ham real hududiy-iqtisodiy vaziyatni aks ettirmaydi. Masalan, Rossiya Federatsiyasining Chukotka o'lkasida yoki Kamchatka, Magadan viloyatlarida, o'zimizning Qoraqalpog'istonda urbanizatsiya ko'rsatkichi nisbatan yuqori. Biroq, bu hududlar iqtisodiy jihatidan uncha rivojlanmagan.

O'zbekiston bilan Turkmanistonni olaylik: urbanizatsiyaning demografik ko'rsatkichi Turkmanistonda biznikidan ko'ra ancha yuqori. Vaholanki, iqtisodiyotda bunday xulosa chiqarish notug'ri bo'lardi.

Demak, u yoki bu mamlakat urbanizatsiya darajasini boshqa mamlakat bilan qiyoslaganda quyidagilarga e'tibor berish lozim:

- shahar tashkil qilish mezonlari (masalan, Turkmanistonda buning uchun 5 ming kerak, O'zbekistonda-7 ming);
- shaharlarning umumiy soni va zichligi;
- yirik shaharlarning mavjudligi;
- shahar aglomeratsiyalarining rivojlanganligi;
- qishloq-shahar va mayatniksimon migratsiya;
- aholining bandlik darajasi va tarkibi;
- qishloq joylar urbanizatsiyasi, qishloqliklarda shaharchasiga yashash tarzining mavjudligi va x.k.

Yuqoridagilar urbanizatsiyaning naqadar murakkab ijtimoiy-iqtisodiy hodisa ekanligidan yana bir bor dalolat beradi. Albatta, urbanizatsiya -bu ob'ektiv va umuman olganda ijobiy jarayon. Ammo uning salbiy tomonlari ham yo'q emas. Chunonchi, ekologik va sotsial muammolarning keskinlashuvi hozirgi zamon urbanizatsiyasining eng ko'zga ko'rinarli salbiy «yo'ldoshlaridir». O'rta Osiyo va O'zbekistondagi urbanizatsiya sharqona xususiyatga ega. Binobarin, bu yerda urbanizatsiya ko'rsatkichini yaqin kelajakda 70-80 foiz bo'lishini tasavvur qilish qiyin va bunday aslo bo'lmaydi ham. Sababi-bizda shaharlar rivojlanishi qishloq xo'jaligi bilan qadimdan an'anaviy holda bog'liq. Qolaversa, bunday mamlakatlarda qishloq urbanizatsiyasi ham katta ahamiyatga ega. Boz ustiga, respublikamiz rahbariyati qishloq joylarda ijtimoiy-iqtisodiy tub o'zgarishlarni amalga oshirish, qishloq industriyasi va infrastrukturasi jiddiy e'tibor qaratmoqda-ki, bu ham urbanizatsiyani ichkaridan, «yashirincha» rivojlanishidan darak beradi. Demak, urbanizatsiyaning umumiy demografik ko'rsatkichi garchi ma'lum qulayliklarga ega bo'lsa-da, uning ayrim nozik jihatlari ham mavjud. Shaharlarning ham tarixi uzoq. Biroq bu tarix insoniyat tarixidan qisqa bo'lib, bu davr jamiyat tarixiga mos keladi. Shaharlar jamiyatning hududiy birikmasi (sotsiumi) shaklida sinfiy tuzum, ya'ni quldorlik davrida ko'proq rivojlana boshladi. Umuman olganda, shaharlarning vujudga kelishini ijtimoiy mehnat

taqsimoti bilan bog'laydilar. Ma'lumki, dastlabki ijtimoiy mehnat taqsimoti dehqonchilikning chorvachilikdan ajralib chiqishidir. Dehqonchilik, xususan sug'orma dehqonchilikning paydo bo'lishi muqim, doimiy (statsionar) aholi manzilgohlarining barpo bo'lishiga sabab bo'ldi. Dastlabki sug'orish inshootlari yoki vositalarini ko'pchilik qurar edi, undan ko'pchilik foydalanar va ularni ko'pchilik qo'riqlardi. Shu asosda kishilarning qadimiy jamoasi vujudga keladi. Ammo bu jamoa (jamiyat emas!), kishilarning hududiy birligi u davrda shahar ham qishloq ham deb aytilmasdi. Shaharlar esa ijtimoiy mehnat taqsimotining navbatdagi bosqichi, ya'ni dehqonchilikdan xunarmandchilik va savdoning ajralib chiqishi natijasida paydo bo'ldi. Ushbu kasbdagi kishilar, bevosita qishloq xo'jaligi bilan shug'ullanmaydilar va binobarin, ular har xil mehnat qurollari ishlab chiqarish, hamda tovar ayriboshlash (almashtirish) da vositachilik vazifasini bajargan, qulay joyda o'rinishgan aholi punktlarida yashaganlar. Keyinchalik bunday joylar «shahar» deb atalgan.

Quldorlik davrida shaharlar qul savdosi markazi bo'lgan. Ayni shu vaqtda, ular davlat markazlari vazifasini ham o'taganlar. Natijada, shahar-davlat vujudga kelgan. Masalan, Rim, Afina, Vizantiya, Vavilon, Buxoro, Samarqand (Marokand) shular jumlasidandir. Feodalizm da shaharlar rivojlanishining hunarmandchilik va qishloq xo'jaligi, yerdan foydalanish bilan (feod-er) bog'liq bo'lgan. Bu davrda shaharlar katta hududlarning siyosiy, diniy, iqtisodiy va madaniy hamda savdo markazlari funksiyasini bajargan. Shaharlarning jadal taraqqiy etishi, hozirgi zamon urbanizatsiya jarayonining rivojlanishi ko'p mamlakatlarda kapitalistik ishlab chiqarish, iqtisod, moliya, transport va boshqa soxalarning mujassamlashuvi asosida sodir bo'lgan. Bizning o'lkamizda esa shaharlar an'anaviy ravishda (sharq madaniyatiga xos holda) sug'orma dehqonchilik, savdo va hunarmandchilik negizida rivojlanib kelgan. Shuni alohida ta'kidlash joizki, «shahar» tushunchasi, barcha el va yurtlarda, mamlakat va muzofotlarda aynan bir ma'noda talqin qilinmaydi, ular bunday maqomda turli davlatlarda turlicha belgilanadi. Chunonchi, islom dini mamlakatlarida shaharlar (Qubbalar) avvalombar bozor va masjidning soni bilan belgilangan. G'arb mamlakatlarida shaharlar aholi soni va

zichligi, joylarning arxitekturasi va qurilish shakli, manzilgohning bajaradigan vazifasiga o'xshash mezonlar orqali ajratilgan. O'zbekistonda 1972 yildan beri aholi manzilgohining shahar maqomini olishi uchun eng kamida 7 ming aholigiga bo'lishi hamda ularning ko'pchiligi qishloq xo'jaligi bilan bog'liq bo'lmagan sohalarda band bo'lmog'i shart. Shaharlar murakkab tushuncha. Shu bois ulardan turli fan vakillari har xil talqin qiladilar. Masalan, iqtisod uchun shahar asosan ishlab chiqarish, eng avvalo sanoat markazi, sotsiologiya uchun o'ziga xos yashash muhiti, tarixchi uchun o'tmishdan guvohlik beruvchi joydir va x.k. Iqtisodiy geografiyada esa shahar-bu qishloq xo'jaligi bo'lmagan sohalar va ular bilan shug'ullanuvchi aholining hududiy tashkil etish shakllidir; u dinamik ijtimoiy-iqtisodiy tizim (sistema) hisoblanadi

2.2. Shaharlar rivojlanishi va tabiiy muhit

Umuman shaharlarning joylanishiga ta'sir etuvchi omillarni bir necha guruhga bo'lish mumkin. Ular: tabiiy, iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy omillardir. Bular orasida tabiiy omillarning o'rni o'ziga xos. Shaharlarni aynan shu yerda o'rnamashuviga uning mikrogeografik holati sababchi bo'ladi. Agar shaharning tabiiy sharoiti – yer usti tuzilishi (relefi), iqlimi, suv va boshqa elementlari qulay bo'lsa, u rivojlanishda davom etadi, yoki aksincha noqulay bo'lsa rivojlanishdan to'xtaydi. Yurtimizdagi ko'pgina qadimiy shaharlar noqulay tabiiy sharoitlar ta'sirida rivojlanishdan to'xtab, ayni paytda xarobalarga aylanib qolgan (Nasaf, Axsi, Afrosiyob, Varaxsha, Poykent, Tuproqqal'a va h.k.). Ularda suv toshqini, zilzila, surilma, yer osti suvi yuqoriligi tufayli cho'kish kabi noxush hodisalar bo'lgan.

Landshaftlarni shaharsozlik maqsadlarida baholash ham o'ziga xos xususiyatlarga egadir. U yoki bu hududni shaharsozlik borasida o'zlashtirish uchun dastlab landshaft turlarini aniqlab olish va baholash lozim bo'ladi.

Sh.S. Zokirov fikricha tabiiy muhit va uning ayrim komponentlari shaharlar tipiga, aholi punktlari va dam olish maskanlarining geografik tarqalishiga kishilarning hayot tarziga (masalan, ish maromiga, kiyim-kechaklar tanlashiga, ovqatlanishiga) ta'sir qiladi. Shuning uchun ham landshaftlarni shaharsozlik maqsadlarida baholashning amaliy ahamiyati kattadir.

Aholi yashashi uchun qulay yoki noqulayligiga qarab 1982 yil V.V. Vladimirov hududlar urboekologik sharoitini tahlil qilib, bir nechta urboekologik mintaqalarni ajratgan va ularni xaritalashtirgan: 1) juda qulay; 2) qulay; 3) cheklangan miqdorda qulay; 4) noqulay; 5) ancha noqulay; 6) juda noqulay; 7) haddan tashqari noqulay. Uning xaritasida O‘zbekistonning Qizilqum va Ustyurt kabi joylari ancha noqulay mintaqaga kiritilgan. Amudaryo va Sirdaryo bo‘ylari, delta maydonlari, tog‘ oldi-tog‘ etagi tekisliklari qulay mintaqaga, tog‘lar esa xaddan tashqari noqulay mintaqaga kiritilgan.

O‘zbekiston hududi tabiiy sharoitini shaharsozlik nuqtai-nazaridan baholash bo‘yicha dastlabki tadqiqotlarni 1990-1993 yillarda A. Soatov olib borgan. U tabiiy sharoiti nisbatan bir xil bo‘lgan joylarni ajratib olib, ularni “hududlar tiplari” deb atagan. Hududlar tiplari faqat shaharsozlik maqsadlarida ahamiyatli bo‘lib, unda shaharsozlik uchun kuchli ta’sir etadigan komponentlar e’tiborga olingan. Bunday komponentlar sirasiga relief, tog‘ jinslari, iqlim, gidrogeologik sharoit kabilar kiradi. Ularning xossa va xususiyatlaridan tashqari, estetik ko‘rinishi, tuproq, o‘simlik qoplami, rekreatsion jihatlari ham hisobga olingandir. A. Soatov tuzgan O‘zbekiston hududlari tiplarini baholash xaritasida 46 hudud turlari aks ettirilgan. Xaritada tasvirlangan har bir hudud turlari shaharsozlikda yaroqlilik darajasiga ko‘ra bir necha guruhlariga yoki sinflarga birlashtirilgan: 1) juda kam yaroqli; 2) kam yaroqli; 3) o‘rtacha yaroqlidan past; 4) o‘rtacha yaroqli; 5) o‘rtacha yaroqlidan yuqori; 6) eng yuqori darajada yaroqli. Ana shunday baholash sinflari ularga kiradigan hududlar turlarining sifatlari haqidagi tasavvurni quyidagi 2-jadvaldan olish mumkin

2-jadval

O‘zbekiston hududlari tiplari

Hududlar turlarini baholash sinfi	Hududlar turlari	Hududlar turlarining sifatiy tavsifi
I	II	III

I	II	III
Juda kam yaroqli	Dengiz va ko'l tekisliklari	Grunt suvlari yaqin joylashgan, tuz konsentratsiyasi ko'p miqdorda, qumli va gilli jinslar kuchli sho'rlangan
	Chink va oqimsiz botiqlar	Kuchli parchalangan tik yonbag'irli, mustahkam bo'lmagan jinslar, suvda eruvchan, kuchli sho'rlangan sho'rxoklar mavjud
	Past qoldiq tog' va past tog'lar	Relifi kuchli parchalangan, tog' jinslari mustahkam
	O'rtacha balandlikdagi tog'lar	Relifi kuchli parchalangan, tog' jinslari mustahkam
	Baland tog'lar	Relifi kuchli parchalangan, tog' jinslari mustahkam
Kam yaroqli	Skulpturali-denudatsion tekisliklar	Qumli relef shakllari
O'rtacha	Strukturali-denudatsion	Yupqa ellyuviyli va karstlanuvchi jinslar
Yaroqlidan past	tekisliklar	mavjud
O'rtacha yaroqli	Allyuvial-delta tekisliklari, tog'lardagi tekis yuzalar	Nisbatan grunt suvlari yaqin, deflyasiya hodisalari keng rivojlangan, tog'li o'lka
O'rtacha yaroqlidan yuqori	Allyuvial-delta tekisligi, dellyuvial-prolyuvial tekislik	Tekis va grunt suvlari nisbatan yaqin, chuchuk suvlar yetishmaydi
Eng yuqori darajada yaroqli	Allyuvial-prolyuvial tekisliklar	Relief tekis, grunt suvlari chuqur

Shunday qilib, mintaqalar tabiiy sharoiti shaharlar qurilishi uchun baholayotganda tabiiy komponentlarning barchasiga e'tibor berish kerak. Bu borada V.V. Vladimirov "hududlar tabiiy resurslarini shaharsozlik uchun o'zlashtiriyotganda tabiiy landshaftning barcha elementlarini: tog' jinslari, yer usti va yer osti suvlari, havo qobig'i, tuproq, o'simlik va hayvonot dunyosini baholash kerak deb aytgan edi. Bular orasida esa tog' jinslari asosiy mavqega ega. Unga hududning injener-geologik sharoiti va mineral xom ashyo resurslarining qay

holatda tarqalganligi bog‘liq. Tog‘ jinslarining holati mintaqalarning seysmik faolligiga, qurilish ishlarini tashkil qilishga, hatto qurilishlarning narxlariga ta’sir qiladi. Aholi manzilgohlari tarkibi va ularning joylashuvida relef asosiy omil bo‘lib xizmat qiladi. Hududlarni qishloq xo‘jaligi maqsadlarida o‘zlashtirish va qurilishlar olib borish ham relefga bog‘liq. Relef shaharlarning estetik ko‘rinishlarini yaxshilashda munosib “ulush” qo‘shadi. Masalan, tekisliklarda, yassi va qoldiq tog‘larda, tog‘ oldida, tog‘ oralig‘i vodiylarida, baland tog‘larda shaharlarning tashqi qiyofasi bir-biridan keskin farq qiladi. Tekis maydonlarda shaharlarni joylashuvidan ko‘ra, ularni tog‘ oldida zinapoyasimon holatda yoki daryo va dengiz sohillari bo‘ylab cho‘zinchoq shaklda joylashganligi ajoyib manzara kasb etadi. Shu bilan birga tog‘li o‘lkalar iqlim va suv rejimining yaxshiligi shaharlarni ko‘kalamzorlashtirishni osonlashtiradi.

Demak, shaharlarning tabiiy asosi (ya’ni u joylashgan yer) o‘ziga xos bo‘lib, u manzilgohning tashqi ko‘rinishi, arxitekturasini va dizaynida yaqqol namoyon bo‘ladi. Shunga ko‘ra V.V. Vladimirov O‘zbekistondagi ba’zi shaharlarni relefi bo‘yicha quyidagilarga ajratgan. Guliston, Urganch, Xiva, Nukus-yassi tekislikda, Toshkent, Farg‘ona, Samarqand, Andijon, Buxoro-baland tekislikda, Qo‘qon-ushtu ikki tip to‘qnashgan joyda, Chirchiq, Namangan-adir tipli relefda joylashgan. Mazkur bo‘linishda faqat Buxoro shahrining relef tipi biroz e’tirozli. Bizning fikrimizcha, Buxoroi sharif birinchi tipli relefga ega. Chunki shahar hududi deyarli tekislikdan iborat bo‘lib, uning ichida va atrofida balandliklar uchramaydi. Mineral xom ashyo resurslari shahar va hatto rayonlar hosil qilishda asosiy omillardan biri bo‘lib hisoblanadi. Shaharlarning katta-kichikligi mineral resurslarning tarkibi va zahirasiga bog‘liq. Odatda, yoqilg‘i-energetika sanoati asosida yirik shaharlar vujudga kelmaydi. Chunonchi, Muborak, Qorovulbozor, Nurek, To‘qtog‘ul, Nebitdog‘, Ali-Bayramli (Ozarbayjon), Janao‘zen (Qozog‘iston) shunday markazlar sanaladi. Ko‘mir bazasida shakllangan shaharlarning katta-kichikligi kon zahirasini ko‘lami bilan o‘lchanadi. Havzasining maydoni yirik bo‘lgan konlar asosida-Donetsk, Fushun (Xitoy), Kemerovo,

Qaragʻanda kabi katta shaharlar, kichik konlarda esa Toshkoʻmir, Qizilqiya (Qirgʻiziston), Shargʻun singari mayda shaharlar tashkil topgan.

Rudali foydali qazilmalarni shahar hosil qilish darajasi yuqori. Ayniqsa, ularni qayta ishlash yirik sanoat tugunlarini paydo boʻlishiga asos boʻladi. Pittsburg, Baltimor, Taranto (Italiya), Marsel, Krakov (Polsha), Magnitogorsk, Dnepropetrovsk va boshqa industrial markazlarning rivojlanishida metallurgiya sanoati hal qiluvchi taʼsir koʻrsatgan. Oʻzbekistonning Olmaliq, Bekobod va Zarafshon shaharlari ham metallurgiya markazlaridir.

Qazilma boyliklarni ishga tushirish orqali vujudga kelgan manzilgohlarni ilmiy adabiyotlarda “resurs shaharlar” deb aytiladi. Bunday shaharlarning aksariyatida bir xil maʼdan ishlab chiqarish yoʻlga qoʻyilgan. Yaʼni resurs shaharlar tor darajadagi ixtisoslashuvga ega. Bunga ularning ekstremal tabiiy sharoitga egaligi, transport magistrallaridan uzoqligi, ekologik holatining noqulayligi sababchi boʻlgan. Noqulay iqlim va ekologik vaziyat tufayli choʻl zonasida shaharlar va shaharliklar sonining oʻsishi nohoyatda sekin kechadi. Arid oʻlkalarda yangi manzilgohlar asosan foydala qazilmalar negizida, shahar tipidagi posyolkalar (SHTP) tarzida vujudga keladi. Juda katta maydonni egallagan Oʻrta Osiyo choʻllarida ham SHTP soni uncha koʻp emas. Jumladan, Qoraqumda-18, Qizilqumda-5 ta boʻlib, ularning aksariyatida aholi soni 1-3 ming kishini, baʼzan undan ortiqroqni tashkil etadi. Bundan tashqari gaz quvurlari boʻylab kam sonli aholiga ega (100-300 kishi) yangi manzilgoh tipi-gaz kompressor stansiyalari hosil boʻlgan. Umuman olganda, resurs shaharlar mamlakatlar va mintaqalar iqtisodiyotida muhim oʻrin tutadi. Garchi ular aholi soniga koʻra yirik boʻlmasada, shaharlar toʻrida oʻz oʻrniga ega. Resurs shaharlar soni Rossiyada taxminan 300 taga, Oʻrta Osiyoda 161, Oʻzbekistonda 63 taga teng.

2.3. Antropogen landshaftlarning xilma-xilligi

Barcha tirik mavjudotlar qatori inson hayotini ham atrof-muhitsiz, tabiatsiz tasavvur qilish qiyin. Inson organizmi koʻp jihatdan tabiiy komponentlar havo, suv, oʻsimlik, tuproq, hayvonot va hokazolar bilan bogʻliq. U tabiatdagi moddaning aylanma harakati doirasidadir va uning qonuniyatlariga boʻysinadi.

Bundan tashqari inson ongli mavjudotdir va u o'z mehnatini osonlashtirish yuqori samaraga erishish uchun turli mehnat qurollardan texnika kuchidan foydalanadi. U boshqa organizmlardan farqli o'laroq ijtimoiy mavjudotdir. Jamiyat a'zovidir. Shuning uchun uning hayoti biologik omillardan tashqari ko'pgina ijtimoiy omillar bilan ham belgilanadi.

Inson bevosita va bilvosita yerga, tuproqqa, suvga, havoga, o'simlik va hayvonot dunyosiga ta'sir etmoqda. Bu bilan u o'z oldiga qo'ygan maqsadlariga erishmoqda. Ammo ba'zan o'zi kutmagan, ayrim salbiy oqibatlarining yuzaga kelishiga ham sababchi bo'lib qolmoqda. Bunda salbiy oqibatlarining ba'zilari dunyoviy tus olmoqda va olimlarni jamoatchilikni tashvishga solmoqda.

XX- asrning 40-50 yillarida geografiya adabiyotida madaniy landshaftlar yoki o'zgartirilgan landshaftlarga bag'ishlangan ilmiy maqolalarning birin-ketin paydo bo'lishi antropogen landshaftshunoslik poydevorining shakllanishiga kuchli turtki bo'ladi. Bu borada ayniqsa 1946 yil G.Yu. Saushkinning «Madaniy landshaftlarni o'rganish uchun geografiyaning alohida tarmog'i bo'lishi kerak», degan fikri muhim ahamiyatga ega bo'ldi. Uning 1947 yilda nashr qilingan monografiyasida esa qishloq xo'jalik landshaftlari haqida jiddiy fikrlar keltirilgan. 1970 yilda Voronej davlat universitetining professori F.N. Milkov o'zining «Landshaftnaya sferi zemli» nomli kitobida inson tomonidan barpo etilgan majmualarni o'rganish bilan antropogen landshaftshunoslik shug'ullanish kerak» deb ta'kidlab o'tganidan so'ng landshaftshunoslik tarkibida yangi bir ilmiy yo'nalish "Antropogen landshaftshunoslik" shakllana boshladi. Bu yo'nalishni hatto «bilimlarning yangi tarmog'i» deb atadilar. Hozirgi kunda antropogen landshaftshunoslik yo'nalishining asoschisi F. N. Milkov (1973) ekanligini ko'pchilik geograflar e'tirof etyapti. Shu sohada qator ilmiy asarlar yaratgan bu olimning fikricha, insonning xo'jaligdagi faoliyati natijasida yangidan barpo bo'lgan landshaftlar ham, inson ta'sirida birorta komponent tubdan o'zgargan tabiiy majmualar ham antropogen landshaft hisoblanishi kerak. Keyinchalik 1986 yil F.N. Mil'kov «antropogen landshaftlar tabiiy landshaftlarga o'xshab teng ahamiyatli bo'lgan

komponentlar tizimidan iborat majmualardir. Ularning eng asosiy xususiyati o'z-o'zidan rivojlanish belgilarining mavjudligidir» deb yozgan edi.

«Oxrana landshaftov» izohli lug'atida xususiyatlari inson faoliyati natijasida yuzaga kelgan landshaftlar antropogen landshaftlardir va ular o'zining tabiiy ta'riflarini saqlab qolgan taqdirda ham o'zida madaniy o'simliklar o'zgargan tuproq xususiyatlari yer osti va usti suvlari tartibi ko'rinishda «antropogen» mazmun kasb etgan bo'ladi deb yozilgan. Bunday holda Yer yuzida tarqalgan landshaftlarning ko'pchiligini antropogen landshaftlar qatoriga kiritsak bo'ladi. Ular tabiiy sifatlaridan bo'lak ikkinchi xil, ya'ni ijtimoiy sifatlar ham kasb etgan bo'ladi.

Yuqorida keltirilgan bir qator fikrlarning tahlili shuni ko'rsatadiki yer yuzida inson ta'sirida ozmi-ko'pmi o'zgarmagan yoki insonning bevosita yoki bilvosita ta'siri asoratini sezmagan landshaftlar deyarli qolmagan. Ammo qaysi landshaft qay darajada antropogenlashgan va ularni qachon antropogen landshaft deb atash mumkin yoki tabiiy landshaftga aylanadi, degan savollarning javobi haligacha muammoli va munozaralidir. Ana shunday munozarali savollardan yana biri tabiiy landshaftlar antropogen landshaftlarga aylanishi uchun uning bir komponentigina o'zgarishi kifoyami yoki barcha komponentlar bir yo'la o'zgartirilgan bo'lishi kerakmi, degan savoldir.

Bunga javoban F.N. Milkov (1978) tabiiy landshaftni antropogen landshaftga aylantirish uchun uning xoxlagan bir komponentini o'zgartirish kifoya deb hisoblaydi. Bu fikrning asosida komponentlarning landshaft hosil qiluvchi omil sifatidagi ahamiyati tenglidir, degan tassavur yotadi.

N. A. Solnsev (1960) esa landshaftni o'zgartirish uchun albatta uning geologo-geomorfologik o'zgartirilgan bo'lishi kerak deb hisoblaydi. Bu bir vaqtlar N A Solnsevning o'zi ilgari surgan va komponentlarning o'zaro teng kuchli emasligi, ularning hosil bo'lishida oldinma-keyinlik mavjudligi hamda oldin hosil bo'lgan komponentlar «kuchliroq» (hisoblanib keyin hosil bo'lgan komponentlarga ko'proq ta'sir ko'rsatadi, degan fikrning davomidir. Uning fikricha geologik yotqiziqlar va relef yoki geologo-geomorfologiyasi «kuchli» komponent, iqlim va

suvlar o'rtacha kuchga ega komponentlar tuproq, o'simlik va hayvonot dunyosi «kuchsiz» komponentlar hisoblanadi.

Landshaftlardan xalq ho'jaligi maqsadlarida to'g'ri va oqilona foydalanish, uning ifloslanishi va buzilishining oldini olish yoki muhofaza qilish bilan bog'liq bo'lgan muammolarni to'g'ri hal etish landshaftlarning qaysi komponentga asosiy yetakchi yoki bosh rolni o'ynashini to'g'ri hal qilib olish mumkin va prinsipial ahamiyatga egadir. Chunki, inson landshaftga ta'sir etaversayu, ammo biz landshaftning geologo-geomorfologik asosi qachon o'zgarar ekan, deb kutib o'tirishimizning o'zi bir yoqlamalik va xatolikka olib kelishi mumkin. Yuqorida birma-bir keltirilgan fikrlardan to'g'ri xulosa chiqarib olish uchun hamda antropogen landshaftlar haqida malum tassavurga ega bo'lish uchun landshaftning komponentlari va omillari haqida yana bir bor eslatib o'tishga to'g'ri keladi. Ko'pchilik tabiiy geograflarning ta'kidlashiga ko'ra geotizimlar asosan tog' jinslari suvlar, havo massalari tuproqlar, o'simlik qoplami va hayvonot kabi moddiy komponentlardan tuzilgandir. Ular o'zaro bog'liq va o'zaro ta'sirdadir. Ular orasida muttasil modda almashinib turadi. Ushbu komponentlar landshaftlar vertikal tarkibining shakllanishida tarkibiy qismlar sifatida ishtirok etadi.

Komponentlarning o'ziga xos xususiyatlaridan biri shundaki, ularning har bir tarkibida boshqa komponentlarga xos bo'lgan moddalar ham ishtirok etadi. Masalan, landshaftlarning havo komponenti tarkibida atmosfera gazlaridan tashqari suv bug'lari turli chang zarralari, o'simlik changlari mikroorganizmlar ham aralashgan bo'ladi. Xuddi shunday landshaft suvlar tarkibida ham, havo, erigan, nuragan va yuvilgan tog' jinslari, o'simlik va hayvonot, ular qoldiqlarida va hokazolarda uchraydi.

Landshaft hosil qiluvchi omillar haqida so'z yuritilganda, ko'pincha u yoki bu komponentning ayrim xususiyatlari ko'zda tutilganligini yoki komponent landshaftda ma'lum bir kuch sifatida ishtirok etsagina uni omil deb hisoblash hollarini ko'ramiz. Ayrim hollarda esa landshaftga tashqaridan bo'ladigan kuchlarni omil sanashadi. Masalan, quyosh radiatsiyasi yerning gravitatsiya kuchi, yerning ichidan bo'ladigan tektonik kuchlar havo sirkulyasiyasi va hokazo.

Aslini olganda landshaftlar juda ko'p turli tuman omillar ta'sirida shakllanadi. Ular landshaftlarda turli sifat va xususiyatlarning shakllanishida turlicha ahamiyat kasb etadi. Agar landshaftlarning shakllanishida ma'lum bir turdagi omillar ahamiyatli hisoblansa, ularning tabaqalanishida yoki rivojlanishida boshqa bir turdagi omildir. Landshaftlarning o'zgarishida esa yana bir boshqa guruh omillar ahamiyatli bo'lishi mumkin. Shu nuqtai-nazardan qaraganda tabiiy landshaftlarning antropogen landshaftlarga aylanishida antropogen omil asosiy kuch sanaladi. Shuning uchun ham inson faoliyati ta'sirida o'zgargan landshaftlarni antropogen landshaftlar deb atashdan ko'ra antropogen landshaftlar omil ta'sirida o'zgargan landshaftlar deb atash to'g'riroq bo'lar edi. Bunda inson ta'sirida tabiiy jarayon hamda tashqaridan ta'sir etadigan omil deb qaralmog'i lozim.

Insoning xo'jalikdagi faoliyati ta'sirida landshaftlarning o'zgarish darajasi, miqiyosida va jadalligi turlicha bo'ladi. Bu bir tomondan landshaftlarning o'ziga xos bo'lgan tabiiy xususiyatlari bilan bog'liq bo'lsa ikkinchi tomondan insonning landshaftga ta'sir etishi xarakteri bilan bog'liqdir. Landshaftlarning tabiiy xususiyatlari, ya'ni o'zini-o'zi boshqarish va qayta tiklash xususiyatining kuchli yoki kuchsizligi tashqi kuchlar (shu jumladan inson faoliyati ham) ta'siriga chidamliligi yoki chidamsizligi turli landshaftlarda har xil bo'ladi. Shu bilan birga inson faoliyati ham turlichadir. Masalan, inson landshaftlarga tog'-kon sanoati sharoitida bir xil ta'sir ko'rsatsa, shahar qurilish sharoitida boshqa xil, dextqonchilik, chorvachilik, o'rmon xo'jaligi sharoitida esa yana boshqacharoq ta'sir etadi. Natijada xilma-xil o'zgargan landshaftlar hosil bo'ladi va ularni tasniflash zarurati tug'iladi.

1991 yil A.G. Isachenko inson faoliyatining landshaftlar ta'siri va uning nazariy muammolari haqida fikr yuritarkan inson tomonidan o'zgartirilgan landshaftlar tasnifi tabiiy landshaftlar tasnifiga bog'liq bo'lishi lozimligini uqtiradi va tabiiy landshaftlarning turli xil tasniflarga tadbiq etish mumkin bo'lgan hamda o'zgartirilgan landshaftlarning sifat jihatidan anchagina yiriklashtirilgan birliklarini

aks etgiruvchi tasnifini tavsiya etadi. Ushbu tasnifda asosan to‘rt guruh landshaftlar aks ettirilgan:

1. Shartli o‘zgartirilmagan ibtidoiy landshaftlar. Ular bevosita inson ta’siriga va xo‘jalikdagi faoliyatiga duchor bo‘lmagan landshaftlardir. Ularda inson faoliyatining kuchsiz va bilvosita ta’siri izlarinigina payqash mumkin, xolos;

2. Kuchsiz o‘zgartirilgan landshaftlar. Bular asosan inson faoliyatining ekstensiv ovchilik, baliqchilik kabi ta’siriga duchor bo‘lgan landshaftlar. Bunday landshaftlarda inson faoliyati ayrim komponentlarga ta’sir etib, tabiiy aloqadorliklar hali buzilmagan va avvalgi o‘z holatini tiklab olish mumkin;

3. Buzilgan, kuchli o‘zgartirilgan landshaftlar. Bu guruhdagi landshaftlar asosan inson faoliyatining jadal xili ta’sirida o‘zgargan landshaftlardir. Ularning ko‘p komponentlari o‘zgarib, landshaftlar tarkibining sezilarli darajada buzilishiga olib kelgan;

4. Madaniy landshaftlar tarkibini inson tomonidan jamiyat manfaatlarini ko‘zlagan va ilmiy asoslangan holda oqilona o‘zgartirilgan landshaftlardir.

Shunga o‘xshash tasnif 1975 yil D.L. Armandning kitobida ham uchraydi. U inson faoliyati ta’sirida o‘zgargan landshaftlarni besh turga bo‘ladi. Bular:

1. Deyarli butunlay o‘zgartirilgan landshaftlar (shaharlar, tog‘-kon sanoati rivojlangan hududlar);

2. Kuchli o‘zgartirilgan landshaftlar (ekin dalalari, daryo va ko‘llar);

3. Anchagina o‘zgartirilgan landshaftlar (borish va kirish mumkin bo‘lmagan o‘rmonlar, dashtlar, savannalar);

4. Kuchsiz o‘zgartirilgan landshaftlar (borish qiyin bo‘lgan o‘rmonlar, dengiz yuzalari);

5. Deyarli o‘zgartirilmagan landshaftlar (qutb o‘lkalari, baland tog‘lar, cho‘llar, dengiz suvlarining quyi qismlari, qo‘riqxonalar);

I.M. Zabelinning fikricha, antropogen landshaftlar o‘zi yana ikkiga: tabiiy antropogen va madaniy landshaftlarga bo‘linadi. Tabiiy antropogen landshaftlar bir marotaba inson faoliyati ta’sirida hosil bo‘lib, keyinchalik o‘z holicha, tabiiy qonuniyatlar ta’sirida rivojlana boshlaydi. Ular vaqt o‘tgan sari asta-sekin o‘zining

ilgarigi tabiiy holatiga qaytishi mumkin. Ammo, inson tomonidan bo'ladigan qayta turtkilar, bu jarayonni sekinlashtirishi yoki to'xtatishi mumkin.

Madaniy landshaftlar deganda I.M. Zabelin inson tomonidan o'zining amaliy ehtiyojlarini qondirish uchun ataylab, ongli ravishda barpo qilingan landshaftlarni tushunishni tavsiya etadi. Uning fikricha, madaniy landshaft tabiiy sharoiti bir xil bo'lgan va ko'p yillar davomida xo'jalikning biror tarmog'ida (masalan, qishloq xo'jaligida) foydalanilayotgan hududdan iboratdir.

Hozirgi zamon landshaftlarining ko'pchiligi insonning oqilona faoliyati natijasida o'zgartirilgan bo'lib, ularni madaniy landshaftlarga aylantirish lozim. Bunday landshaftlarning eng asosiy xususiyatlaridan biri maxsuldorlik va iqtisodiy samaradorlik bo'lishi kerak. Landshaftlarning ichki imkoniyatini rivojlantirish, tabiiy jarayonlarni faollashtirish va landshaftlarning samaradorligini oshirish asosiy maqsadga aylanishi kerak. Darhaqiqat, inson dexqonchilik bilan shug'ullanar ekan, u o'z oldiga eng avval bir narsani, ya'ni iloji boricha ko'proq qishloq xo'jalik mahsuloti olishni maqsad qilib qo'yadi. Bu maqsadga erishish uchun landshaftni tekislaydi, tuproqni ma'lum bir qalinlikda ag'darib tashlaydi, o'g'it soladi. Ma'lum bir ekin ekadi, sug'oradi, begona o'tlar va zararkunandalar, hashoratlarga qarshi turli xil dorilarni ishlatadi, tuproqni sho'rini yuvadi, zax suvlarini qochiradi va hokazo. Xullas, ekin ekishdan to hosilni yig'ishtirib olgunga qadar turli-tuman agrotexnik tadbirlarni qo'llaydi va bu jarayonlar, yuzlab yillar mobaynida qaytalanaveradi. Natijada bizga yaxshi tanish bo'lgan va antropogen landshaftlar ichida «madaniy landshaft» deb atalishi mumkin bo'lgan hamda yuqori maxsuldorlik, iqtisodiy samaradorlik kabi talablarga ozmi ko'pmi mos kela oladigan landshaftlar hosil bo'ladi. Bu o'z navbatida ilgari shu landshaftlarga xos bo'lgan tabiiy xilma-xillikning soddalashishga hamda moddalarning, shu jumladan to'yimli moddalarning ham, namlik va energiyaaning aylanma harakatining o'zgarishiga olib keladi. Vaholanki, landshaftlardagi to'yimli moddalarning aylanma harakati organizmlar sonining muvofiqlanib turish, tuproq unumdorligining maromida bo'lishi, landshaftlarning o'zini-o'zi saqlab turishida juda katta va hal qiluvchi ahamiyatga egadir.

III bob. Tabiiy landshaftlarning urbolandschaftlar bilan o'rin almashish oqibatlari (O'zbekiston misolida)

O'zbekiston tabiiy-ekologik sharoitining turli-tumanligi, uning o'simlik va hayvonot dunyosining ko'p turli bo'lishiga ta'sir ko'rsatgan. Shimolda Ustyurt platosining bepayon landshaftlari, janubi-sharqda tog' landshaftlarining qorli cho'qqilari, shimoli-sharqda Qizilqum landshaftlari cho'zilib yotibdi. Tog' landshaftlaridan katta va kichik daryolar orqali hayqirib oqib tushayotgan suvlar madaniy landshaftlarni sug'oradi. Suvsiz qumli cho'l landshaftlar va tog'-o'rmon landshaftlari yoki daryo vodiylari ekologik sharoiti o'simlik va hayvonlarning o'sishi hamda hayot kechirishi uchun bir xil emas. Ekologik sharoitning har xilligi sababli mavjud landshaftlarda turlar notekis taqsimlangan. Shunga ko'ra har qaysi landshaft uchun ma'lum bir sharoitga moslashgan o'simlik va hayvonlarning ayrim turlari xarakterlidir. Biroq, shunday o'simlik va hayvon turlari ham borki, ular har qanday ekologik sharoitga ega landshaftlarda o'sadi va yashaydi. Bunday moslanish mazkur turlarning keng tarqalishiga imkon beradi.

O'zbekiston tabiatining biologik va landshaftlar xilma-xilligi milliy boyligimizdir. Bu boylik o'z tarixiy taraqqiyotiga ega va ajdodlarimizdan qarzga olingan ne'matdir. So'ngi yillarda qishloq xo'jaligi va sanoat hamda urbanizatsiya loyihalarini amalga oshirish natijasida mamlakatimiz tabiatining xilma-xilligiga putur yetkazildi. Bularning hammasi landshaftlarda ekologik vaziyatning yomonlashuviga olib keluvchi salbiy jarayonlarning rivojlanishiga sabab bo'ldi. Qishloq xo'jaligida paxta yakkahokimligi ustuvorligi, irrigatsiya maqsadida tashqi salbiy ta'sirlarga monand cho'l landshaftlarining keng miqiyosida o'zlashtirilishi-Orol dengizi ekologik falokatiga, Janubiy, Markaziy va Shimoli-g'arbiy mintaqalardagi landshaftlarning ikkilamchi sho'rlanishiga, tabiiy suv landshaftlarining o'zgarishiga, sun'iy tashlama suv havzalari tarmoqlarining hosil bo'lishiga, atrof-muhitning zararli va zaharli defoliantlar hamda pestitsidlar bilan zaharlanishiga olib keldi. Bu omillar cho'l landshaftlaridagi noyob va betakror cho'l biologik majmualarining yo'q bo'lib ketishiga sabab bo'ldi. Masalan, Farg'ona cho'li tekislik daryolari o'zanlaridagi to'qayzorlar, Amudaryo deltasi va

boshq. Bunday jarayonlarning respublikadagi sanitariya-epidemiologiya va parazitologiya holatlari keskinlashuviga, shuningdek tabiiy landshaftlardagi umumiqlimiy o'zgarishlarga ta'sir qilayapti. Zamonaviy uskuna, texnika va texnologiyalari ta'minotsiz yer osti boyliklarini qazib olinishi va uning eksportini jadallashtirish-Ustyurt yassi tekislik landshaftlari va shimoli-g'arbiy Qizilqum landshaftining ekologik tizimlari biologik tanazzulga yuz tutdi. Chirchiq-Ohangaron sanoat majmuasi kimyo va tog'-kon sanoati korxonalarining chiqindilari atmosfera havosi va tuproqlarni ifloslantirib, ta'sirchan tog' ekologik landshaftiga hamda maxalliy aholi salomatligiga ta'sir qildi.

Cho'l va sahrolardan iborat keng tekisliklar, tog'-dashtlar, o'rmonlar, yaylovlar, to'qayzorlar, suv havzalari, madaniy landshaftlar-bularning barchasi o'ziga xos floristik va faunistik majmualarga ega ekotizimlarni tashkil qiladi. So'ngi yillarda tabiatdan foydalanishning kuchayishi, tabiiy landshaftlarning o'zlashtirilib urbolandshaftlarga aylantirilishi oqibatida mamlakatimizdagi ko'plab o'simlik va hayvon turlarini yashash joylari va sonining qisqarishiga, ba'zilarining butunlay yo'q bo'lib ketishiga sabab bo'ldi. Ayniqsa ov ahamiyatiga ega yirik qushlar va sutemizuvchilar, shuningdek antropogen o'zlashtirilayotgan, tashqi ta'sirga chidamsiz ekotizimlarning tarqalishi cheklangan va endemik turlar xavf ostiga qoldi. Jumladan, turon yo'lbarisi, gepard, turkman quloni, Orol sulaymon balig'i kabi hayvonlar umuman yo'qolib ketdi. Qoplon, sirtlon, to'xta tuvaloq, Sirdaryo va Amudaryo kichik va katta kurakburunlari, Orol bahrisi kabilari-yo'q bo'lib ketish arafasida turibdi. Hozirda ko'plab o'simlik va hayvon turlari uzluksiz kamayib bormoqda. Bularning barchasiga sabab-tabiiy landshaftlarning urbolandshaftlarga aylantirilishi, xo'jalik maqsadlarida o'zlashtirilishi, atrof-muhitning ifloslanishi, biologik resurslardan me'yorsiz foydalanishdir. O'zbekistonda qishloq xo'jaligining asosini sug'orma dehqonchilik tashkil etadi. So'ngi paytlarda sug'oriladigan maydonlarni kengaytirish maqsadida Mirzacho'l, Jizzax, Qarshi va Surxon-Sherobod cho'l landshaftlari, Farg'ona vodiysining markaziy qismi, Tyonshon va Pomir-Oloy tizmalarining g'arbiy etaklaridagi adirlar o'zlashtirildi. Oqibatda bunday o'zgarishga moslasholmay qolgan cho'l

o'simlik va hayvonlari soni keskin kamayib ketdi. Urbolandshaftlarda istiqomat qiluvchi aholi ehtiyojlarining ortishi qishloq xo'jaligini rivojlantirishga sabab bo'ldi. Qishloq xo'jaligini suv bilan ta'minlash uchun daryo o'zanlarida o'zgarishlar bo'ldi, to'qayzorlar kesib tashlandi. Oqibatda hayoti to'qay bilan bog'liq o'simliklar va hayvonlar kamayib ketdi. Urbo va suburbolandshaftlarning paydo bo'lishi iqtisodiy o'sish bilan aloqador. Iqtisodiy o'sishga erishish, suvdan ko'p foydalanish bilan bog'liq. Suvdan ko'p foydalanish Orol dengizi suv sathining pasayishi, suvning o'ta sho'rlanishi, 70 ga yaqin baliqlar, qisqichbaqa va molluskalarning ko'plab endemik turlari qirilib ketishiga sabab bo'ldi. Tog'-kon sanoatining rivojlanishi, daraxt va butalarning kesilishi, yaylovlarda ko'p mol boqish natijasida tog', adir va yaylov landshaftlari o'zgarib, turlarning yashash joylari yo'qolib ketdi.

Shaharlarning rivojlanishida tabiiy landshaftlarning biotik va abiotik omillari ta'sir ko'rsatsa-da, urbanizatsiya natijasida turlar genofandi yangilanadi, aholining o'rtacha umri ko'rishi yuksaladi, sinantrop turlar soni ortadi, aholining ekologik savodxonligi oshadi.

3.1. Landshaftlarni muhofaza qilish masalalari va landshaftlar taraqqiyotini bashorat qilish

Landshaft qobig'ini muhofazasi har-xil ko'rinishda amalga oshirilishi mumkin. Ularning eng muhimlari quyidagilar: tabiatning tipik joylarini o'z holicha saqlab qolish uchun qo'riqxonalar, rezervatlar tashkil etish, ba'zi tabiiy ob'ektlarni, xalq parklarini buyurtmaxonalarga aylantirish, ajoyib tabiiy ob'ektlar: sharshara, g'or, qoya, keksa daraxt, jilg'a, buloqlarni hisobga olish, antropogen landshaftni rekultivatsiya qilish va boshqalar.

Landshaft elementlari inson yashaydigan aniq muhit hisoblanib, uni har qanday ko'ngilsiz va nooqilona o'zgarishlar hamda ifloslanishlardan muhofaza qilish zarur. Landshaftlarni muhofaza qilish deganda biz uning unsurlarini iloji boricha toza saqlash, undagi muvozanatning buzilishiga yo'l qo'ymaslik, tabiatning tipik va ajoyib hududlarini tabiiy holicha saqlab qolish kabilarni tushunamiz.

Landshaft va uning unsurlarini turli shakllarda muhofaza qilish mumkin. Ularni umumlashtirib quyidagi uch guruhga ajratamiz:

- Landshaftning butun komponentlarini to‘la-to‘kis muhofaza qilish;
- Antropogen landshaftning vujudga kelishi va uni asl holatini saqlash;
- Landshaftning butun komponentlarini muhofaza qilishda qo‘riqxonalarining ahamiyati juda katta;

Tabiat bilan jamiyat o‘rtasidagi munosobatlarning tobora keskinlashib borishi, antropogen ta’sirning kuchayishi ta’sirida tabiiy muhitda yuz berayotgan o‘zgarishlar tabiatni muhofaza qilishni ongli va rejali tashkil etishni taqozo etadi. Shu munosabat bilan alohida muhofaza qilinadigan tabiiy hududlar tizimini tashkil etish muhim amaliy ahamiyatga ega. Ular bir necha tiplarni o‘z ichiga oladi: qo‘riqxonalar, milliy bog‘lar, tabiatdagi muzeylar, ta’qiqlangan va muhofaza zonalar, rekreatsiya hududlari. Ular u yoki boshqa darajadagi intensiv xo‘jalik faoliyatidan chiqarilgan hududlar bo‘lib, ular turli darajada tabiat muhofazasi bilan shug‘ullanadi.

O‘simlik va hayvonot dunyosini muhofaza qilish, ularning nodir va tugab borayotgan turlarni saqlab qolish, sonini ko‘paytirishda qo‘riqxona, xalq parklari, zakazniklarning ahamiyati kattadir. Dunyoda muhofaza qilinadigan hududlarning soni 20 mingdan ko‘proqdir. BMTning tavsiyasiga ko‘ra, har bir mamlakatning kamida 10% hududi muhofaza qilinadigan hududlar bo‘lishi kerak. Bu ko‘rsatkich mamlakatimizda 6 % ni tashkil qiladi.

Muhofaza qilinadigan tabiiy hududlarning asosiy turi qo‘riqxonalardir. Ularning quruqlik va suv havzasining xarakterli tabiiy landshaftlari bilan ma’lum bir tabiiy hudud bo‘lib, tabiat muhofazasining eng samarali shaklidir. Qo‘riqxonalarining asosiy vazifasi tabiatni diqqatga sazovor, qimmatli landshaftlarini asrash, saqlab qolish va muhofazalashdan iboratdir.

Zakazniklar yoki burtmaxonalar - alohida muhofaza qilinadigan tabiiy hududlarning 3-tipi hisoblanadi. Ularning qo‘riqxonalardan farqi ob’ektlaridan va ularning resrslaridan xo‘jalik maqsadlarida ma’lum mavsumlarida tabiatga zarar etkazmasdan foydalanishga ruxsat beriladi. Bir vaqtning o‘zida tabiat

ob'ektlarini va ularning bo'limlari, ayrim hayvon va o'simlik turlari muhofaza qilinadi.

Tabiat yodgorliklarini kichik maydonni egallaydigan qimmatli tabiat ob'ektlari: sharsharalar, geologik ochilma qatlamlar, noyob va tarixiy qimmatga ega daraxtlar, g'orlar va boshqa muhofaza qilinadigan ob'ektlar qatoriga kiradi.

Muhofaza qilinadigan tabiiy hududlar tizimini barpo etishni loyihalashtirishda quyidagi prinsiplarga amal qilinadi:

1).Ular tizimini tabiiy majmualarning asosiy birligi daryo havzalariga keladigan yo'nalishda barpo etish;

2).Tabiat muhofazasi tizimini tabiatning xilma-xilligini aks ettiruvchi to'liq spektorda barpo etish;

3).Tabiat ekologik yo'laklarni barpo etish;

4).Milliy tabiiy parklar maydonini kengaytirish va ularning sonini ko'paytirish;

5).Keng maydonni egallaydigan uzoq muddatli zakazniklarni barpo etish;

6).Muhofaza qilinadigan tabiiy hududlarda rekreatsiya imkoniyatlaridan foydalanish va rekratsiya rolini oshirish hamda turli rejimda faoliyat ko'rsatadigan hududiy rekreatsiya tizimlarni barpo etish;

7).Muhofaza qilinadigan tabiiy hududlarning kadastrini tuzish asosida loyihalashtirishni amalga oshirish;

2-jadval

**O'zbekiston respublikasining muhofaza qilinadigan tabiiy
hududlarining asosiy hududlari**

t/r	Rasmiy nomi, tashkil etilgan yili	Joylashgan manzili	Maydoni km²
I	II	III	IV
1.	Chotqol tog'-o'rmon biosfera qo'riqxonasi (1947 y)	Toshkent viloyati, Ohangaron va Toshkent tumanlari	451,6

I	II	III	IV
2.	Hisor tog‘-archa (1983 y)	Qashqadaryo viloyati Yakkabog‘ va SHaxrisabz tumanlari	814,3
3.	Zomin tog‘-archa (1926,1960y)	Jizzax viloyati Zomin va Baxmal tumanlari	268,4
4.	Baday-to‘qay tekistlik- to‘qay (1971 y)	Qoraqalpog‘iston respublikasi, Beruniy tumani	64,6
5.	Qizilqum to‘qay-qum (1971 y)	Buxoro Romitan tumani, Xorazm , Do‘stlik tumani	101,4
6.	Zarafshon vodiy-to‘qay (1971 y)	Samarqand viloyati Bulung‘ur va Jomboy tumani	23,5
7.	Nurato Biosfera qo‘riqxonasi (1975 y)	Jizzax viloyati Forish tumani	177,5
8.	Kitob geologiya qo‘riqxonasi(1971)	Qashqadaryo viloyati Kitob tumani	53,7
9.	Surxon tog‘-o‘rmon (1987)	Surxandaryo viloyati Termiz va Sherobod tumani	276,7

O‘zbekistonda turli darajada muhofaza qilinadigan tabiiy hududlarning umumiy maydoni 20,6 ming km²

3-jadval

Davlat milliy parklari

t/r	Rasmiy nomi, tashkil etilgan yili	Joylashgan manzili	Maydoni km ²
1.	Zomin xalq parki (1976)	Jizzax, Zomin tumani	241,1
2.	Ugom –Chotqol tabiiy milliy parki (1990)	Toshkent viloyati Bo‘stonliq, Parkent, Ohangaron tumani	5745,9

4-jadval

Davlat zakazniklari

t/r	Rasmiy nomi, tashkil etilgan yili	Joylashgan manzili	Maydoni km²
1.	Arnasoy (1983)	Jizzax viloyati	663,0
2.	Qorako‘l (1980)	Buxoro viloyati	100,0
3.	Sayg‘oq (1991)	Qoraqalpog‘iston respublikasi	10000,0
4.	Sudochi (1991)	Qoraqalpog‘iston respublikasi	5000,0
5.	Sarmish (1991)	Navoiy viloyati	25,2
6.	Qoraqir	Buxoro viloyati	300,0
7.	Qarnob cho‘l	Samarqand viloyati	400,0
8.	Qo‘shrabot	Samarqand viloyati	165,0
9.	Dengiz ko‘l	Buxoro viloyati	86,0

5-jadval

Davlat tabiat yodgorliklari

t/r	Rasmiy nomi, tashkil etilgan yili	Joylashgan manzili	Maydoni km²
1.	Vardanze (1975-1983)	Buxoro viloyati	3,0
2.	Yozyovon (1991)	Farg‘ona va Namangan viloyati	31,8

Hozirgi paytda muhofaza qilinadigan hududlar tizimi tarkibiga umumiy maydoni 2164 km² 9 ta davlat qo‘riqxonasi, maydoni 6061 km² bo‘lgan 2 ta milliy park, maydoni 12186,5 km² bo‘lgan 9 ta davlat zakazniklari, 1ta respublika noyob hayvonlarni ko‘paytirish markazi kiradi. Lekin muhofaza qilinadigan hududlarning faqatgina 1,8 % zi uzoq muddatli hisoblanadi. Bu albatta etarli emas.

Qo'riqxonalar mamlakatning muhofaza qilinadigan hududlari tizimini 10%ini tashkil qiladi.

Milliy parklar yaqin yillarda tashkil qilingan, 1976 yilda Ugom-Chotqol milliy parkini tashkil qilish bilan Milliy parklar muhofaza qilinayotgan jami hududning 30%ini tashkil qiladi. Davlat zakazniklari muhofaza hududlarini 39%ini tashkil qiladi. Muhofaza qilinadigan tabiiy hududlar tizimi O'zbekiston viloyatlari va tabiiy ekologik zonalar bo'yicha nihoyatda notekis joylashgan. Ularning asosiy qismi Toshkent viloyatiga to'g'ri keladi. Shuni alohida ta'kidlash lozimki, muhofaza qilinadigan tabiiy hududlar mintaqalarning umumiy rivojlanish strategiyasining elementiga aylanmagan. Ularning umumiy maydoni normativlardan 3-6 marta kamdir. Ma'lumki, biosferaning o'z-o'zini tiklash va takror ishlab chiqarish xossalarini saqlab qolish uchun mamlakatlar hududining 10% dan 25%gacha muhofaza qilinadigan hududlarga aylantirish kerak.

XXI asrda muhofaza qilinadigan hududlarni rivojlantirish falsafasi xalqaro tabiatni muhofaza qilish uyushmasining tavsiyalariga ko'ra ekologik barqaror yo'laklarni barpo etishga, bioxilma-xixxikni saqlab qolishga asoslanishi lozim. SHunga muvofiq O'zbekiston Respublikasida alohida muhofaza qilinadigan tabiiy hududlarning ilmiy asoslangan tizimini barpo etish eng muhim ekologik-iqtisodiy vazifalardan biri hisoblanadi.

Qo'riqxonalar-bu tabiat etaloni bo'lib tabiatni muhofaza qilishda bir qancha vazifalarni amalga oshiradi. Qo'riqxonalar tashkil etish orqali ma'lum bir joy yoki geografik zona tabiatning barcha majmualari bilan birga namunasi tabiiy holicha kelajak avlod uchun saqlab qolinadi.

Qo'riqxona-bu tabiatning tarkibiy qismi sifatida tabiat majmualari yaxshi saqlangan maydonlar hisoblanib, unda tabiiy-hududiy majmualarning rivojlanish qonuniyatlari, o'zaro aloqasini, organizm bilan muhit o'rtasidagi munosabatlarni ilmiy jihatdan o'rganiladigan tabiiy laboratoriyadir. Bu tabiiy laboratoriyada olib borilgan ilmiy izlanishlar natijasi, insonning xo'jalik faoliyati tufayli o'zlashtirilgan qo'shni hududda sodir bo'lgan va ijobiy o'zgarishlarga taqqoslanib, ilmiy tavsiyalar beriladi.

Qo'riqxonalar soni va turi kamayib borayotgan o'simlik va hayvonlarni qo'riqlash va ko'paytirishda juda muhim rol o'ynaydi. Qo'riqxonalar tufayli noyob hayvon yoki o'simlik ko'paytirib, boshqa joylarga tarqatiladi. Bunga Badxiz qo'riqxonasida ko'paytirilgan quyonlarni Turkmaniston hududiga qo'yib yuborilishi yaqqol misoldir.

Qo'riqxonalar yovvoyi hayvonlarni saqlash ularni ko'paytirishda ham ahamiyatlidir. Qo'riqxonada turli hayvonlar muhofaza ostiga olingach bugungi kunga kelib, shunchalik ko'payar ediki, uni ov qilishga ham ruxsat etish mumkin bo'lardi. Qo'riqxonalar tabiatning ajoyib, qiziqarli, noyob joylarini (g'or, qoya, jar, ochilib qolgan jins, sharshara, geyzer, buloq, nurash tufayli vujudga kelgan rel'ef shakllari va boshqalar) tabiiy holicha saqlab qolishda juda muhim vazifani bajaradi. Qo'riqxonalarning madaniy-oqartuv va estetik jihatdan ahamiyati katta. Qo'riqxonalar orqali tabiatning ajoyib joylari keng omma orasida namoyon etiladi va tabiatni muhofaza qilish zarurligi targ'ibot qilinadi. Qo'riqxona uchun ajratilgan joylar ajoyib tabiiy manzarasining ko'rkamligi bilan kishilarni xordiq chiqarib madaniy dam oladigan joy, ularga estetik zavq beradigan ob'ekti sifatida ham ahamiyatlidir. Qo'riqxonalar muhofaza qilinadigan ob'ektning harakteriga ko'ra majmualari va maxsus qo'riqxonalarga ajratiladi. Biror hududdagi tabiiy-hududiy majmualar to'liq butunlay muhofaza qilinsa, uni majmualari qo'riqxona deb aytiladi. O'zbekistondagi qo'riqxonalarning ko'pchiligi shunday qo'riqxonalardir. O'zbekiston hududida to'qay, cho'l, tog' landshaftini muhofaza qilish va u yerdagi tabiat komponentlarini, xususan o'simlik va hayvonlarning hayotini chuqur o'rganish hamda ko'paytirish maqsadida qo'riqxonalar tashkil etilgan.

Landshaftlarni muhofaza qilishda yana milliy (xalq) parklarni, buyurtmaxona (zakaznik) lar va tabiat yodgorliklarning ham ahamiyati kattadir.

O'zbekistonda hozircha Turkiston tog' tizmasining shimoliy yon bag'rida joylashgan Zomin xalq parki (1977 yil) mavjud. Uning maydoni 47,7 ming ga bo'lib, dengiz sathidan 1000-4030 metr balandlikda joylashgan. Bu xalq parkida mehnatkashlarning dam olishi, sport mashg'ulotlari va turizm bilan shug'ullanishlari uchun qulay sharoitlar yaratilishidan tashqari, tog' landshafti va u

yerdagi organizmlar, o'tloqlar, hayvonlar, tabiatning ajoyib ob'ektlari muhofazaga olingan.

Landshaftlarni muhofaza qilishda buyurtmaxona (zakaznik) lar ham ishtirok etadi. Buyurtmalar hududida tabiat komponentlarining bir qismi (o'simlik, hayvon, parranda yoki tabiatning ajoyib qismi va boshqa) qo'riqlanadi. Buyurtmaxonalar doimiy va vaqtinchalik bo'ladi. Buyurtmaxonalarni asosiy vazifasi noyob hayvon, parranda yoki o'simlik turlarini yoki tabiatni ajoyib joylarni yo'q bo'lib ketishidan asraydi, hayvon va o'simliklarini ko'payishi uchun sharoit yaratadi.

Landshaftlarning ajoyib, diqqatga sazovor unsurlarini saqlab qolishda tabiat yodgorliklarning ahamiyati juda katta. Ilmiy, madaniy va tarixiy jihatidan qimmatli, ajoyib, noyob tabiat ob'ektlarini muhofaza qilib, saqlab qolish uchun ancha katta maydonni egallovchi qo'riqxonalar, zakazniklar barpo etish shart emas. Ularni maydoni juda kichik bo'lgan «tabiat yodgorliklari» sifatida saqlab qolib, muhofaza qilish mumkin. Bu birinchidan tez amalga oshiriladi, ikkinchidan kichik joy bo'lganligidan katta mablag' sarflashni talab etmaydi.

Tabiat yodgorliklari deganda, biz g'orlarni, kanonlarni, sharsharalarni, ajoyib buloq va geyzerlarni, daralarni, jarlik joylarni, qoyali rel'ef shakllarini, ochilib qolgan yotqiziqlarni, ayrim noyob va qimmatli daraxtlarni, toshqotgan hayvonlarni, tarixiy obidalarni va boshqa tabiatning ajoyib ob'ektlarini tushunamiz. Tabiat yodgorliklarini saqlash va muhofaza qilishning ilmiy, tarixiy, madaniy-estetik va vatanparvarlik ahamiyati katta.

O'zbekistonda mingga yaqin tabiat yodgorliklari mavjud. Lekin ularning ko'pchiligi hisobga olinmasligi oqibatida holati yomonlashib bormoqda. Shu sababli zudlik bilan har bir qishloq, rayon, viloyat hududida mavjud bo'lgan tabiiy yodgorliklarni nazorat ostiga olish zarurdir. Tabiat yodgorliklari xususiyatlariga qarab geologiya, paleontologiya, landshaft, arxeologik va botanik yodgorliklarga bo'linishi mumkin.

Landshaft yodgorliklari juda ko'p bo'lib unga ajoyib qoyalar, sharsharalar, daralar, qiziqarli jarlar va boshqalar kiradi. Landshaft yodgorliklariga Ilono'tti darasi, Arslonbobdagi katta sharshara, Surxondaryodagi Kalif -Sherobod marzasi,

Katta va Kichik Chilan soyligi, Oqtosh soyligi, Sangzor darasi, Shovvachi va boshqalar kiradi.

Muhofaza etiladigan tabiiy hududlar (qo‘riqxonalar, tabiiy va milliy bog‘lar, buyurtmaxonalar, tabiat yodgorliklari) Barqaror taraqqiyoti uchun tabiatni muhofaza qilish va biologik xilma-xillik resurslarini saqlab qolish katta ahamiyatga ega bo‘lganligi tufayli O‘zbekiston Respublikasi 1995 yilda Xalqarobiologik xilma-xillik to‘g‘risidagi Konvensiyaga(CBD, Rio-de-Janeyro) qo‘shildi. 1998 yilda hukumat tomonidan O‘zbekiston Respublikasida Biologik xilma-xillikni saqlab kolish bo‘yicha Milliy strategiya va Harakatlar rejasining tasdiqlanishi bioxilma-xillikni saqlab qolish yo‘lidagi birinchi qadam bo‘ldi. Bu strategiyaning asosiy vazifalaridan biri mamlakat umumiy maydonining 10%gacha qismini qamrab oluvchi muhofaza etiladigan tabiiy hududlar barqaror tizimini tashkil qilish hisoblanadi. O‘zbekiston Respublikasida bioxilma-xillikni muhofaza qilish aynan muhofaza etiladigan tabiiy hududlarda to‘laqonli amalga oshirilmoqda.

Muhofaza etiladigan tabiiy hududlarni tashkil qilish, muhofaza etish va foydalanish sohasidagi davlat boshqaruvi hukumat, joylardagi davlat hokimiyati organlari, shuningdek maxsus vakolatga ega bo‘lgan davlat organlari – O‘zbekiston Respublikasi Tabiatni muhofaza qilish davlat qo‘mitasi, Qishloq va suv xo‘jaligi vazirligi, Davlat geologiya qo‘mitasi tomonidan amalga oshiriladi. Xalqaro darajada muhofaza etiladigan tabiiy hududlar tizimining taraqqiyoti Umumjahon tabiatni muhofaza etish uyushmasi, xususan, Umumjahon muhofaza etiladigan tabiiy hududlar komissiyasi (WCPA) tomonidan muvofiqlashtiriladi. Biroq muhofaza etiladigan tabiiy hududlar butligi va samarali menejmentini davlat miqyosida ta‘minlash muhofaza etiladigan tabiiy hududlarni boshqarishning birinchi darajali vazifasi hisoblanadi.

Muhofaza etiladigan hudud – bu biologik xilma-xillikni hamda tabiiy resurslar va ular bilan bog‘liq madaniyat elementlarini saqlab qolish uchun mo‘ljallangan.

O'zbekiston Respublikasi tomonidan Bonn Konvensiyasi (CMS, Bonn, 1998), Ramsar Konvensiyasi (Ramsar, Convention on Wetland), Yo'qolib ketish xavfi ostida bo'lgan yovvoyi fauna va flora turlari bilan xalqaro savdo qilish to'g'risidagi Konvensiya (CITES, Vashington, 1997), yaqin va uzoq xorij davlatlar bilan tabiatni muhofaza qilish masalalari bo'yicha xalqaro bitimlar imzolangan.

1972 yilda YUNESKO tomonidan «Umumjahon madaniy va tabiiy merosini muhofaza qilish to'g'risida»gi Konvensiya qabul qilindi, unda birinchi marta jahon xalqlarining «Umumjahon merosi»ni tashkil qiladigan universal qadriyatga ega bo'lgan ba'zi tabiiy va madaniy boyliklarni himoya qilish va saqlash mas'uliyati belgilab berildi. 1975 yilda ushbu konvensiyani 21 davlat ratifikatsiya qildi, hozirgi paytda konvensiya tomonlariga aylangan davlatlar umumiy soni 180 ga etdi. O'zbekiston Respublikasi bu konvensiyaga 13.01.93 yilda qo'shildi. «Umumjahon merosi» ro'yxatiga taqdim etilgan ob'ekt madaniyat yoki tabiat boyligi merosi, madaniy landshaft bo'lishi mumkin. Tabiat boyliklari – bu yuksak estetik yoki ilmiy qadriyatga ega bo'lgan tabiiy (jismoniy yoki biologik) tuzilmadir.

O'zbekiston bo'yicha «Umumjahon merosi» ro'yxatiga 4 ta (madaniy, tarixiy) ob'ekt kiritilgan: bular Xivadagi Ichan qal'a (1990), Buxoro (1993) va SHaxrisabzning tarixiy markazlari (2000), Samarqand – madaniyatlar chorrahasi (2001). Hozirgi paytda Davlat biologik nazorati (Davbionazorat) tomonidan O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi va YUNESKO ishlari bo'yicha milliy komissiya ishtirokida O'zbekiston Respublikasining tabiat boyliklari merosi dastlabki ro'yxati tayyorlandi hamda Umumjahon merosi» qo'mitasiga taqdim etildi. «Umumjahon merosi» ro'yxatiga 6 ta (tabiiy) ob'ekt: Tog'li Hisor, CHotqol biosfera qo'riqxonasi, Zomin tog'lari (Zomin qo'riqxonasi va Zomin milliy bog'i), SHohimardon, Boysun tumani (qo'shma sayt) va Sarmishsoy (qo'shma sayt) kiritildi.

Ob'ektning mazkur ro'yxatga rasman kiritilishi uning xalqaro nufuzini oshirib, keyinchalik uni saqlab qolish bo'yicha dolzarb masalalarni hal qilish uchun mablag' olish imkonini beradi. Ob'ekt rasmiy sertifikat oladi va o'z nomi,

chegara va axborot nashrlari va hokazolarda mazkur rasmiy nishonni joylashtirish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Asosan suvda suzuvchi qushlar yashash joylari sifatida xalqaro ahamiyatga ega bo'lgan suv-botqoq joylari to'g'risidagi Konvensiya (Ramsar konvensiyasi) 1971 yilda Ramsar (Eron) shahrida imzolandi. Uning asosiy maqsadi suv-botqoq joylari (ko'llar, daryo vodiylari, botqoqlashgan hududlar, dengiz qo'ltiqlari) va suvda suzuvchi qushlarni aniqlash va saqlab qolishdan iborat.

O'zbekiston Respublikasi 2001 yilda Ramsar konvensiyasiga qo'shildi. O'zbekiston hududida suvda suzuvchi va suv atrofida yashaydigan qushlar to'planadigan joylar sifatida juda muhim, suv organizmlari katta zahirasi ega, muhofaza qilinishi va to'g'ri barqaror foydalanilishini talab qiladigan taxminan 10 ta suv havzasi (asosiylari – Dengizko'l, Sudoche, Arnasoy, To'dako'l, Achin ko'loblari, Qoraqir) mavjud. Ro'yxatga xalqaro ahamiyatga ega bo'lgan suv-botqoq joylari, masalan, Dengizko'l kiritilgan. Hozirgi paytda ro'yxatga kiritishga nomzod sifatida Sudoche ko'lini kiritish rejalashtirilgan. Avvalgi qonunchilik asosi tabiatni muhofaza qilish hududiy shaklining ivojlanishini etarlicha ta'minlamas edi. Yangi qonun qabul qilinishi bilan uni yangilash va takomillashtirish rejalashtirilgan.

Respublikada muhofaza etiladigan tabiiy hududlar yaxlit bir tizimdan iborat bo'ladi, u oxir-oqibat bioxilma-xillikni uzoq vaqt saqlab qolishni ta'minlovchi uzluksiz ekologik zanjirga aylanadi. 2004 yil dekabrda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tomonidan yangi «Muhofaza etiladigan tabiiy hududlar to'g'risida»gi Qonun qabul qilindi, u muhofaza etiladigan tabiiy hududlar bo'yicha me'yoriy-huquqiy hujjat hisoblanadi. Ushbu qonunga muvofiq muhofaza etiladigan tabiiy hududlar ularning maqsad va tartiblaridan kelib chiqib, quyidagi toifalarga bo'linadi:

- 1). Davlat qo'riqxonalari;
- 2). Majmua (landshaft) buyurtmaxonalari;
- 3). Tabiiy bog'lar (milliy bog'lar, mahalliy milliy bog'lar);
- 4). Davlat tabiat yodgorliklari;

5).Alohida tabiat ob'ektlari va komplekslarini muhofaza qilish, qayta tashkil qilish va tiklash uchun hududlar (buyurtmaxonalar, tabiiy pitomniklar, baliq xo'jaligi zonalari);

6).Muhofaza etiladigan landshaftlar (kurort zonalari, rekreasion zonalar, suvni muhofaza qilish zonalari, sohilbo'yi polosalari, suv ob'ektlarini sanitar muhofaza qilish zonalari, er usti va er osti suvlarining shakllanish zonalari);

7).Alohida tabiiy resurslarni boshqarish uchun hududlar (o'rmon xo'jaliklari, ovchilik xo'jaliklari);

Muhofaza etiladigan tabiiy hududlar (METH) yangi klassifikatsiyasi Tabiatni muhofaza qilish xalqaro ittifoqining tavsiyalarini hisobga oladi va iqtisodiy hamda ekologik manfaatlar birligini ta'minlovchi qo'riqlanadigan hududlar turli rejimlari yagona ekologik tizimini yaratish imkonini beradi. «Muhofaza etiladigan tabiiy hududlar to'g'risida»gi Qonunda «Biologik xilmaxillik to'g'risida»gi, «Ko'chib yuruvchi yovvoyi hayvonlar turlarini muhofaza qilish to'g'risida»gi, «Asosan suvda suzuvchi qushlar yashash joylari sifatida xalqaro ahamiyatga ega suv-botqoq joylar to'g'risida»gi va yana bir qator konvensiyalar bo'yicha O'zbekistonning xalqaro majburiyatlarini amalga oshirish bo'yicha yo'nalish kuchaytirildi.

Yangi qonunning asosiy farq qilish belgilariga quyidagilar kiradi:

- Muhofaza etiladigan tabiiy hududlarning xalqaro klassifikatsiyalanishi;
- Muhofaza etiladigan tabiiy hududlarga fuqarolar kirishlarining asosiy shartlari belgilangan;
- Fuqarolarni o'zini o'zi boshqarish organlari, nodavlat, notijorat tashkilotlari va fuqarolarning muhofaza etiladigan tabiiy hududlarni muhofaza qilishni va foydalanishni tashkil etishda ishtirok etishlarining qoidalari ko'zda tutilgan;
- Muhofaza etiladigan tabiiy hudud pasporti va boshqarish rejasi to'g'risida talablarni kiritish;
- Majmua (landshaft) buyurtmaxonalari alohida I b kategoriyasiga kiritilgan, qonunchilikda bu avval bo'lmagan;

- Ikki turdagi tabiiy bog'larni yaratish mumkinligi ko'zda tutilgan: respublika ahamiyatidagi milliy tabiiy bog'lar va mahalliy ahamiyatdagi tabiiy bog'lar hamda xususiy buyurtmaxonalar va tabiat pitomniklari;
- Tabiat davlat yodgorliklari klassifikatsiyasi kiritildi;
- Tabiat pitomniklarini, o'rmonlarni himoyalash ma'lum kategoriyalari bilan hududlarni va ovchilik xo'jaliklarining tan olinishi;
- Davlat biosfera rezervatlari tushunchasining kiritilishi;
- Davlatlararo muhofaza etiladigan tabiiy hududlarni yaratish mumkinligi ko'zda tutilgan;

Mazkur yangiliklar shu bilan ham izohlanadiki, muhofaza etiladigan tabiiy hududlarni tashkil qilish, muhofaza qilish va foydalanish masalalari faqat muhofaza etiladigan tabiiy hududda yashovchi aholining hayotiy manfaatlarini bilangina emas, balki mamlakat barcha fuqarolarining rekreatsion, madaniy, sog'lomlashtirish va ma'rifiy manfaatlarini bilan bog'liqdir. SHuning uchun fuqarolarning METH alohida kategoriyalariga kirishlarining shartlari hamda ularni muhofaza qilish maqsadida bunday kirishni chegaralash ko'zda tutilgan. Majmua (landshaft) buyurtmaxonalari, resurslarni boshqarish maqsadida METH uchun muhofaza qilishning yangi kategoriyalari va turlari kiritildi. Bu kategoriyalar METH ob'ektlari va komplekslari vazifalariga fuqarolar va mana shu hududlarda xo'jalik yurituvchi sub'ektlar manfaatlariga javob beradigan muhofaza etiladigan tabiiy hududlarning turlarini yaratishga imkon beradi. Bu muhofaza etiladigan tabiiy hududlar maydonini bir muncha oshirishga va mana shu ko'rsatkich bo'yicha muhofaza etiladigan tabiiy hududlarni mazkur institut mavjud bo'lgan rivojlangan ilg'or mamlakatlar ko'rsatkichlariga yaqinlashtirish imkonini beradi.

Davlat biosfera rezervati tushunchasini kiritilishi alohida ahamiyatga ega. Davlat biosfera rezervati umumdavlat ahamiyatiga molik er usti va suvli ekologik tizimga yoki ularning kombinatsiyasiga ega bo'lgan, biologik xilma-xillikni saqlab qolish, barqaror tabiatdan foydalanish va ijtimoiy qisodiy rivojlantirish, tegishli madaniy boyliklarni muhofaza qilish uchun mo'ljallangan muhofaza etiladigan tabiiy hudud hisoblanadi. Muhofaza etiladigan tabiiy hududlarni moliyaviy

ta'minlash to'g'risida me'yorlar ham belgilangan. Bunday tabiat hududlarining ba'zi toifalarni qisman o'zini-o'zi moliyaviy mablag' bilan ta'minlash ko'zda tutilgan, bu ekologik turizm, rekreatsiya tashkil etish, tabiat resurslaridan foydalanishga ruxsatnoma berishdan tushgan foyda hisobiga amalga oshiriladi.

«Muhofaza etiladigan tabiiy hududlar to'g'risida»gi Qonunga muvofiq, birinchi bor xususiy buyurtmaxonalar va parvarishxonalar yaratish mumkinligi qonuniy ta'minlandi. Bu muhofaza etiladigan tabiiy hududlarni xususiylashtirishni anglatmaydi. Yer maydonlari va boshqa tabiat ob'ektlari yuridik va jismoniy shaxslarga faqat foydalanishga beriladi. Bu nodavlat yuridik va jismoniy shaxslar mablag'larini jalb etishga imkon beradi, shu jumladan tabiat ob'ektlari va muhofaza etiladigan tabiiy hududlarni saqlash, qayta tiklash va qayta ishlab chiqarishni ta'minlash uchun turli milliy va chet ellik tabiatni muhofaza qilish tashkilotlarini jalb etishga yordam beradi. O'zbekiston Respublikasida hozir ikkita xususiy pitomnik tashkil etildi: Buxoro viloyatida (Peshku tumani) yo'rg'a tuvaloqni ko'paytirish bo'yicha «Emirates Birds Breeding» MCHJ pitomnigi (2007 y.);

Navoiy viloyatida (Karmana) yo'rg'a-tuvaloqni ko'paytirish bo'yicha «Emirates Centre for Conservation of Houbara» MCHJ pitomnigi (2008 y.).

«Muhofaza etiladigan tabiiy hududlar to'g'risida»gi Qonun qabul qilingandan keyin ko'p sonli ob'ektlarga - o'rmon xo'jalik korxonalari va ovchilik xo'jaliklariga muhofaza etiladigan tabiiy hududlar maqomi berilmoqda. Bu bioxilma-xillikni muhofaza qilishning hududiy jihatdan qamrab olingan maydonlarni ancha ko'paytirish imkonini beradi. Qo'riqxonalar to'rtta turli idoraga bo'ysungani tufayli «Tabiatni muhofaza qilish to'g'risida»gi Qonun va O'zbekiston Respublikasi Tabiatni muhofaza qilish davlat qo'mitasi haqidagi Nizomga muvofiq Davbionazorat davlat qo'riqxonalarida tabiatni muhofaza qilish qonunlariga rioya etilishini nazorat qilishi mumkin, xolos. Bunday tekshiruvlar Tabiatni muhofaza qilish davlat qo'mitasi tashkil etilganidan keyin darhol boshlandi, keyinchalik muntazam o'tkazib turildi va so'nggisi 2002 yilda amalga oshirildi. Ularning barchasida jiddiy qonunbuzarliklarni aniqlab, davlat

qo'riqxonalarini O'zbekiston Respublikasi Tabiatni muhofaza qilish davlat qo'mitasi tizimiga berish zaruratini tasdiqladi.

O'zbekiston Respublikasi Tabiatni muhofaza qilish davlat qo'mitasi tashkil etilishining maqsadlaridan biri davlat qo'riqxonalarini boshqarish bo'yicha yagona organ tuzish edi. Hukumatning O'zbekiston Respublikasi Tabiatni muhofaza qilish davlat qo'mitasi tashkil etish haqidagi qarorida (05.04.1988 yil 134-sonli) barcha davlat qo'riqxonalarini uning tizimiga berish vazifasi belgilangan edi. Lekin keyinchalik bu qaror bekor qilindi. Davlat bionazorat (Gosbiokontrol) O'zbekiston Respublikasi Tabiatni muhofaza qilish davlat qo'mitasi ixtiyorida bo'lgan muhofaza etiladigan tabiiy hududlar-Hisor davlat qo'riqxonasi va «Jayron» ekomarkazi faoliyati ustidan uslubiy rahbarlik va nazoratni amalga oshiradi.

Hozirgi davrda fan-texnika taraqqiyoti davrida inson tabiat boyliklarini jumladan o'simlik va hayvonot olamining ham kamayib borishini oldini olish kerakligini tushunib etdi. Bu borada dunyo miqyosida o'simliklar olamining holatiga nazar tashlaganda yovvoyi o'simliklar florasi va hayvonot olamining faunasi kamayib borayotganligining guvohi bo'lamiz.

Chet ellik muttaxassis olimlarning ma'lumotlariga qaraganda bugungi kunga kelib, quruqlikda tarqalgan o'simliklarning 150 ming turi tarqalish areali qisqarayotganligi aniqlangan va ularning 1/3 qismi ya'ni 50 ming turi tabiatdan yo'qolishi mumkin. Mo'tadil iqlim zonasida o'suvchi 85 ming turdan 45 ming tur yo'qolishi xavfi borligi ko'rsatilmoqda. Fan-texnika taraqqiyoti gurkirab o'sgan sari himoya qilish zarur bo'lgan hududlarga talab oshib boradi.

Bunday joylardagi tirik mavjudodlar genofond sifatida saqlash muhim ahamiyatga ega. SHuning uchun ham, muhim ahamiyatga ega bo'lgan nodir turlarning landshaftlarini saqlab qolish uchun alohida muhofaza qilinadigan hududlar alohida ahamiyat kasb etadi. Ular ham biosferani ma'lum qismi sifatida uning tabiiy holatini saqlab qolish zarur.

«Jayron» ekomarkazi noyob va yo'qolib ketish xavfi ostidagi hayvon turlarini saqlab qolish va ko'paytirishga ixtisoslashgan jahon miqyosida o'ziga xos

bo'lgan ob'ekt hisoblanadi. 1977 yilda tashkil etilganida ekomarkaz «Buxoro jayronlarni ko'paytirishga ixtisoslashgan pitomnik» deb nomlanardi va unda 42 ta jayron, 4 ta qulon va sayg'oqlar boqilardi. Keyinchalik unda Xalqaro va Milliy Qizil kitoblarga kiritilgan xongul (buxoro bug'usi), gepard, yo'rg'a-tuvaloq ham boqildi. Pitomnikning oldiga jayronlarni ko'paytirish, ular biologiyasini o'rganish va populyasiyasi resurslaridan oqilona foydalanish vazifasi qo'yildi. Keyinchalik ijobiy natijalar olinganidan keyin pitomnik boshqa noyob turlar – qulon, Prjevalskiy oti, yo'rg'a-tuvaloqni ko'paytirish bilan shug'ullandi, bu erda sayg'oqlar podasi ham bor edi. Faoliyatini kengaytirish va hayvonlarni ko'paytirish sohasidagi muvaffaqiyatlari tufayli 26.12.98 yilda Vazirlar Kengashining farmoyishi bilan pitomnik «Jayron» ekomarkaziga aylantirildi.

Ekomarkaz maydoni 7153 ga bo'lib, shundan 5145 ga brakonerlar va yirtqichlardan himoyalaniş uchun metall to'siq bilan to'silgan. Pitomnikda tutqunlik sharoitida hayvonlarni o'rganish va zarurat tug'ilganida hayvonlar bolalarini qo'lda ovqatlantirish imkonini beradigan volerlar tizimi qurilgan. Hozirgi paytda 2007 yildagi hisobga ko'ra jayronlar miqdori 549 bosh, Prjevalskiy otlari 35 boshgacha, O'zbekiston tabiatida yo'qolib ketgan qulonlar 55 boshgacha etgan. Jayronni volerda ko'paytirish sohasidagi ishlar eng muvaffaqiyatli ketmoqda. Ekomarkaz faoliyat yuritgan vaqt davomida tutqunlikda ko'paytirilgan hayvonlarning 30 ta avlodini olishga muvaffaq bo'lindi. Bunda hayvonot bog'lari va xususiy kolleksiyalarga 200 dan ortiq jayron, 5 ta Prjevalskiy oti sotilgan, 822 bosh jayron tarqatilgan, ovchilik mahsuloti (jayron) 128 boshni tashkil qildi. Ekomarkazda bajarilayotgan tadqiqotlar natijalari ilmiy va davriy matbuotda, shuningdek ko'p sonli respublika va xorijiy nashrlarda chop etilgan, majlis va kongresslarda ma'ruza tariqasida taqdim qilingan. Ekomarkaz bo'yicha ilmiy biblio grafiya maqolalari 200 taga etib qoldi. Ekomarkaz xodimlari bilan birga Rossiya, Fransiya, AQSH va boshqa mamlakatlarning mutaxassislari tomonidan noyob ilmiy ishlar o'tkazildi. Ekomarkazning ilmiy hisobotlari Fanlar Akademiyasida taqrizdan o'tadi va Davbionazoratda saqlanadi. Har yili Prjevalskiy oti populyasiyasining holati haqidagi axborot Xalqaro otlar nasli

kitobini yuritish uchun Xalqaro Prjevalskiy oti fondiga jo'natiladi. Buxorodagi Prjevalskiy oti populyasiyasi soni va ko'paytirish salohiyati bo'yicha jahondagi beshlikka kiradi. Ekomarkazda hayvonlar bosh suyaklarining noyob to'plami mavjud. 2007 yilda unda 937 nusxa, shundan jayronlar bosh suyagi 918 nusxa mavjud edi. Kolleksiya materialining qadrliligi shubhasiz, to'plam O'zbekiston ilmiy va madaniy fondlar milliy ro'yxatiga kiritilgan. Hozirgi paytda Ekomarkaz jayron, qulon, Prjevalskiy oti, Buxoro tog'li qo'yini ko'paytirish bilan shug'ullanmoqda. 2007 yilda keltirilgan bir juft Buxoro qo'yidan 2 ta qo'zichoq tug'ildi. So'ngra yana 2 ta Buxoro qo'yi qo'zichog'i va 1 ta morxo'r uloqchasi keltirildi. Joriy paytdagi umumiy soni 6 bosh Buxoro qo'yi va 1 ta morxo'rdan iborat. Maqomi bo'yicha «Jayron» ekomarkazi ilmiy-ishlab chiqarish tashkiloti hisoblanadi. SHtati 33 kishi, 12 kishidan iborat ilmiy bo'limi bor. Ilmiy bo'lim kuchi bilan jayron, qulon, Prjevalskiy oti bo'yicha monitoring tadqiqotlari o'tkazilmoqda. Bundan tashqari alohida mavzular bo'yicha qo'shma ishlanmalar, boshqa tashkilotlarning yakka tartibdagi tadqiqotlari ham mavjud.

Hisor davlat qo'riqxonasi va «Jayron» ekomarkazi taraqqiyotini yaxshilash maqsadida O'zbekiston Respublikasi Tabiatni muhofaza qilish davlat qo'mitasi tomonidan Davbionazorati va mazkur muhofaza etiladigan tabiiy hududlar xodimlari bilan birgalikda «2006-2010 yillarga Hisor davlat qo'riqxonasini rivojlantirish rejasi» va «2006- 2010 yillarda «Jayron» ekomarkazini rivojlantirish bo'yicha ilmiy-tadqiqot va tashkiliy-texnik ishlar dasturi» ishlab chiqildi. Davbionazorati xodimlari tomonidan BMTTD loyihasi va Hisor davlat qo'riqxonasi xodimlari bilan birgalikda «Hisor davlat qo'riqxonasini boshqarish rejasi» loyihasi ishlab chiqildi. Loyiha qayta ishlash jarayonidadir.

Muhofaza etiladigan tabiiy hududlarda ilmiy tadqiqotlarni o'tkazishga alohida e'tibor qaratiladi. SHunday qilib, «Jayron» ekomarkazida 1988 yildan boshlab «Jayronlarni muhofaza qilish, tiklash va xo'jalikda qo'llash shakllarini ishlab chiqish» mavzusida ilmiy ish olib borila boshlandi. Keyinchalik «O'zbekistonda jekning biologik asoslarini va tiklanishini ishlab chiqish», «Gepardni ko'paytirish va uni tabiatga reintroduksiya qilish usullarini ishlab

chiqish» mavzularida tadqiqotlar olib borildi. Bu bilan bir vaqtda «Jayronning sahro o'simlik qoplamiga ta'siri» mavzusida botanik ishlar bajarildi. Ekomarkazga Prjevalskiy otlari keltirilganida «Prjevalskiy otlarini O'rta Osiyoning quruq iqlim sharoitiga moslashtirish» mavzusida ilmiy tadqiqotlar boshlandi. Jayron bo'yicha ishlar davom ettirildi «Jayronlarning pitomnik sharoitida ko'payish davrida sotsial o'zini tutishi», «Sahro ekotizimlarida qushlarning qo'nishi tuzilmasi va mavsumiy dinamikasi» mavzusida qushlar o'rganildi. Hisor davlat qo'riqxonasi tashkil etilgan paytdan boshlab «Tabiat solnomasi», fenologik kuzatuvlar muntazam olib boriladi. Qo'riqxonaning ilmiy xodimlari tomonidan «Hisor tizmasi shimoli g'arbiy tarmoqlarida noyob va yo'qolib ketayotgan hayvonlar turlari biologiyasi», «Archali komplekslarda tabiiy tiklanishni o'rganish», «Noyob va yo'qolib ketayotgan o'simlik turlari populyasiyalari, ularning tarqalish qonuniyatlari va genetik bank larni tashkil qilish imkoniyatlari» mavzularida tadqiqotlar olib borilmoqda. .Ulug'bek nomli O'zbekiston Milliy Universiteti olimlari tomonidan «Hisor davlat qo'riqxonasi er usti umurtqasi o'simliklar hamjamiyati faunasi» ishi bajarildi. O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi Zoologiya instituti «Hisor davlat qo'riqxonasi hayvonot olami inventarizatsiyasi», «Hisor davlat qo'riqxonasi hayvonot va o'simliklarining noyob turlari inventarizatsiyasi», «Hisor qo'riqxonasi asosiy ektomokomplekslari holati va faoliyatining sharhi» mavzularida tadqiqot o'tkazdi. O'zbekiston Respublikasi FA «Botanika» IICHM «Hisor davlat qo'riqxonasi o'simlik qoplamining geobotanik xaritalashtirish» mavzusida ishlar olib bordi. Qo'riqxona o'simliklarining batafsil xaritasi berildi. Qo'riqxona to'g'risida gazetalarda maqolalar chop etildi, hujjatli film suratga olindi. Monitoring va ilmiy ishlar olib borildi. Direktorning fan bo'yicha o'rinbosari B.Oromovning 1999 yilda ilvirsni saqlab qolish bo'yicha Pokistonda, 2001 yilda ekoturizmni rivojlantirish bo'yicha Germaniyada va 2006 yilda muhofaza etiladigan tabiiy hududlarni boshqarish bo'yicha AQSHda bo'lib o'tgan seminarlarga safari tashkil qilindi. Silovsin, ilvirs, boshqa hayvon turlari biologiyasi bo'yicha 12 ta maqola chop etildi. Uchta maqola Pokiston, Germaniya va AQShda, qolgani «Trudi zapovednikov Uzbekistana» kitobida e'lon qilindi.

Respublika qo'riqxonalari afsuski yagona tizimni tashkil qilmay, to'rtta turli idoraga bo'ysunadi. O'zbekiston Respublikasi Tabiatni muhofaza qilish davlat qo'mitasi ixtiyorida 1 ta – Hisor; Qishloq va suv xo'jaligi vazirligining o'rmon xo'jaligi boshboshqarmasida 6 ta – Baday-to'qay, Zomin, Zarafshon, Qizilqum, Nurota, Surxon; Davlat geologiya qo'mitasi ixtiyorida 1 ta – Kitob; Toshkent viloyati hokimligida 1 ta – Chotqol qo'riqxonalari mavjud. Chotqol biosfera qo'riqxonasi 2000 yilda xavfsizlik nuqtai nazaridan Toshkent viloyati hokimligiga berildi. Bu erda 1993 yildan beri «Chotqol qo'riqxonasi tuyoqlilarining populyasion ekologiyasi» mavzusida ilmiy tadqiqotlar o'tkaziladi, «Tabiat solnomasi» muntazam olib boriladi, hayvonlarning har yillik hisobi yuritiladi. 1995 yilda «Chotqol biosfera qo'riqxonasida ornitomonitoring» doimiy ilmiy ishi olib borildi. 1996 yilda «O'zgidromet» markazining gidrobiologiya laboratoriyasi tomonidan «Chotqol qo'riqxonasidagi Boshqizilsoy havzasi suv oqimlarini ekspeditsiyali gidrobiologik tadqiq qilish haqida» ishlar o'tkazildi. 1999 yilda O'zbekiston Respublikasi Tabiatni muhofaza qilish davlat qo'mitasi tomonidan vazirliklar, idoralar va tashkilotlar bilan hamkorlikda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 26.10.99 yil 469-sonli «1999-2005 yillarda O'zbekiston Respublikasida atrof-muhitni muhofaza qilish bo'yicha Milliy harakatlar Dasturini tasdiqlash to'g'risida»gi qarori ishlab chiqildi va tasdiqlandi. Bioxilma-xillikni saqlash bo'yich harakatlar rejasi mazkur hujjatga tarkibiy qism sifatida kiritildi. Amaliy jihatdan Markaziy Qizilqum davlat qo'riqxonasi, Nurota-Qizilqum biosfera rezervati, «Sarmish» milliy bog'i, «Oqtepa» tabiiy bog'ini tashkil qilish bo'yicha ishlar bajarildi. Markaziy Qizilqum qo'riqxonasi bo'yicha er tanlandi, tuman va Navoiy viloyati hokimliklarining qarorlari qabul qilindi, 2003 yilda esa qo'riqxonani tashkil qilish haqidagi qaror loyihasi Vazirlar Mahkamasiga kiritildi. O'rmon xo'jaligi bosh boshqarmasi erlarni ajratish masalalarida ishtirok etdi.

Milliy Strategiya va Harakatlar Rejasining «Namoyish va nishona loyihalari» bo'limi GEF mablag'larini jalb qilish hisobiga Nurota Qizilqum biosfera rezervatini tashkil qilish qismini amalga oshirish boshlandi. Davbionazoratda xona ajratilib, loyiha guruhi jamlandi, vazirliklar va idoralar,

shuningdek, O‘rmon xo‘jaligi bosh boshqarmasi, Jizzax, Navoiy va Samarqand viloyatlari vakillari tarkibidagi loyihaning Muvofiqlashtiruv Kengashi tuzildi. Loyihaning Milliy Koordinator va Muvofiqlashtiruv Kengashi raisi etib Davbionazorat boshlig‘i tayinlandi. Bo‘lajak biosfera rezervatining loyihaviy hududi 1 mln. ga dan ko‘proqni tashkil qiladi. Loyiha tomonidan biosfera rezervatini tashkil qilish uchun ilmiy va uslubiy baza yaratildi. Bioxilma-xillik holati bo‘yicha butun loyihaviy hudud tadqiq va tahlil etildi. Tadqiqotlar natijalari DAT asosida elektron axborotlar bazasiga aylantirildi. Muvofiqlashtiruv Kengashida biosfera rezervatining hududi va chegaralari ham belgilanib tasdiqlandi. Biosfera rezervatiga foydalanishga beriladigan mutloq muhofaza tartibli birinchi zona erlari bo‘yicha viloyat hokimliklarining erlarni tanlash bo‘yicha qarorlari qabul qilindi. Biosfera rezervatini tashkil etish bo‘yicha loyihatayyorlandi va 2006 yilda Vazirlar Mahkamasiga jo‘natildi. Loyiha hududida Forish tumanining tuman markazi – Yangi qishloqda loyihaning dala ofisi (Tashrif markazi) tashkil qilindi, bu erda loyihani boshqarish amalga oshirildi va tashkil etilgan biosfera rezervatining boshqaruvini joylashtirish rejalashtirildi. Vazirlar Mahkamasining Nurota-Qizilqum biosfera rezervatini tashkil qilish to‘g‘risidagi qarorining qabul qilinishi loyihaviy hududda bioxilma-xillikdan barqaror foydalanish bo‘yicha ishlarni yangi bosqichga ko‘tarish va O‘zbekistonning boshqa hududlari uchunbu yo‘nalishda real modellarni berishni tezlashtirish imkonini berar edi. Hozirgi vaqtda loyiha Vazirlar Mahkamasida ko‘rib chiqilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasining muhofaza etiladigan hududlari tizimini takomillashtirish doirasida O‘zbekiston Respublikasi Tabiatni muhofaza qilish davlat qo‘mitasi tomonidan GEF mablag‘larini jalb etgan holda Qozog‘iston va Qirg‘iziston Respublikalari bilan birgalikda Transchegaraviy loyiha amalga oshirildi. Mazkur G‘arbiy Tyan-Shan bioxilma-xilligini saqlab qolish bo‘yicha Markaziy Osiyo Transchegaraviy loyihasining asosiy maqsadi uchta davlat – Qozog‘iston, Qirg‘iziston va O‘zbekistonning mintaqadagi ta’sirchan va noyob biologik muhitini saqlab qolish bo‘yicha ularning intilishlarini qo‘llab-quvvatlash,

bioxilma-xillikni saqlab qolish sohasidagi milliy siyosat, me'yoriy baza va institutsional taraqqiyotni kuchaytirish va muvofiqlashtirishga ko'maklashishdan iborat bo'ldi. Loyiha Aksu-Jabagli (Qozog'iston), Sari-CHelak va Besh-Aral (Qirg'iziston) hamda CHotqol O'zbekiston) qo'riqxonalarini o'z ichiga olgan G'arbiy Tyan-SHan mintaqasini qamrab olgandi. O'zbekiston Respublikasi Tabiatni muhofaza qilish davlat qo'mitasida loyihani amalga oshirish uchun ixtisoslashtirilgan bo'lim tashkil qilindi. Davbionazorat loyihaga ko'maklashib, uning ishida tabiatni muhofaza qilish qonunlariga rioya etilishini nazorat qildi. «Sarmish» milliy bog'ini Navoiy viloyatidagi viloyat ahamiyatga ega bo'lgan buyurtmaxona negizida tashkil qilish rejalashtirilgan. Hudud sahro pasttog'liklarini, ularning flora va faunasini muhofaza qiladi. Bu erda 3000 dan ortiq qoyaga tushirilgan rasmlar – petrogliflar mavjud, bu jahon miqyosida ham juda noyob hisoblanadi va turli mamlakatlardan olimlar va shinavandalarda katta qiziqish uyg'otadi. Tashkil qilish bo'yicha barcha hujjatlar tayyorlandi va ekspertlarning xulosalari to'plandi. Bog' Navoiy viloyati hokimligining 21.04.1997 yildagi qarori bilan mahalliy darajada tashkil qilindi. Uning maydoni 5000 ga ni tashkil qiladi va Navoiy viloyati Tabiatni muhofaza qilish qo'mitasi nazorati ostidadir. 2005 yilda Surxondaryo viloyati hududida «Oqtepa» tabiiy bog'i tashkil qilindi. Uni tashkil qilish to'g'risidagi 151-sonli qaror 29.08.2005 yilda Surxondaryo viloyati hokimi tomonidan qabul qilindi. Mazkur mahalliy ahamiyatdagi tabiiy bog' Oqtepa suv omborining g'arbiy sohilida 1034 ga maydonda joylashgan. Hudud to'qay o'rmoni va qisman qumli sahro bilan qoplangan. Genofondni saqlash va tabiatga reintroduksiya qilish, shuningdek ekoturizm va sayohatlar uyushtirish maqsadida bog'da yovvoyi noyob tuyoqlilar – xongul, Buxoro qo'yi, jayron va morxo'r ko'paytirish rejalashtirilgan. Davlat qo'riqxonalarini – muhofaza etiladigan tabiiy ududlarning eng qat'iy tartibli turi bo'lib, muayyan o'simlik, hayvon turlari va ekotizimlarni himoyalash uchun tashkil qilingan doimiy amal qiladigan muhofaza etiladigan zonalar hisoblanadi. Ularda har qanday xo'jalik faoliyati taqiqlangan (nazorat etiladigan ilmiy tadqiqotlar bundan mustasno). Ular Xalqaro tabiatni muhofaza qilish uyushmasi

(IUCN) muhofaza etiladigan zonalari tasnifining I toifasiga to'g'ri keladi. Respublika qo'riqxonalarida ko'plab Qizil kitobga kirgan hayvon turlari: xongul, morxo'r, seversov qo'yi, ko'k sug'ur, Turkiston silovsini, yirik yirtqich qushlar, hasharotlar muhofaza qilinadi.

Ugom-Chotqol davlat tabiat milliy bog'i 1990 yilda Toshkent viloyatida G'arbiy TyanSHanning tog'li tarmoqlarida 574,6 ming ga maydonda tashkil etilgan. Bog' tabiatni muhofaza qilish va undan oqilona foydalanishga qaratilgan. Bog'ning ulkan maydoni dengiz sathidan 900 dan 4000 m gacha oraliqdagi balandlikda joylashgan, turli er toifalarini o'z ichiga oladi. Bu erga CHotqol biosfera qo'riqxonasining 2 uchastkasi kiradi, bu erda to'liq osoyishtalik hukmron. Oxangaron va Brichmulla o'rmon xo'jaliklari erlarida o'rmonni tiklash faoliyati olib borilmoqda, chorva mollarini boqish cheklangan, yoz faslining uch oyidagina katta balandlikdagi yaylovlarda boqiladi. Bog' o'simlik olamiga boy, olimlar minglab turdagi o'simliklarni aniqlashgan, ulardan o'nlab turlari Qizil kitobga kiritilgan, bir necha turi esa shunchalik kichik arealga egaki, bog'dan boshqa dunyoning hech bir erida uchramaydi. Bog'ning hududida o'sadigan qator o'simlik turlari dorivorlar sirasiga kiradi. Hayvonot olami ham turli-tumanligi bilan ajralib turadi. Qizil kitobga kirganlaridan ayiq, ilvirs, ko'k sug'ur uchraydi. Bu erda 200 turdagi qushni uchratish mumkin.

Bog' hududiy ma'muriy organ – Toshkent viloyati hokimligiga bo'ysunadi.

Davlat buyurtmaxonalari «Muhofaza etiladigan tabiiy hududlar to'g'risida»gi Qonunga muvofiq davlat buyurtmaxonalari (TMXR 4-toifasi) va tabiat yodgorliklari (TMXR 5-toifasi) muhofaza etiladigan tabiiy hududlar sirasiga kiritilgan. 1988 yilda O'zbekistonda 6 ta buyurtmaxona faoliyat yuritardi:

Arnasoy – Jizzax viloyati;

Dengizko'l – Buxoro viloyati;

Qo'hitong – Surxondaryo viloyati;

Sangardak – Surxondaryo viloyati;

«Efa» - Surxondaryo viloyati;

Gurlan – Xorazm viloyati.

Bugungi kunda O'zbekiston hududida 10 ta faoliyat yuritayotgan buyurtmaxona mavjud. «Dengizko'l» davlat ornitologik buyurtmaxonasi Respublika Vazirlar Kengashining 1973 yildagi 530-sonli qarori bilan tashkil qilingan, faoliyati muddati Buxoro viloyati ijroqo'mining 26.06.90 yildagi 157-11-sonli qarori bilan (muddatsizga) uzaytirildi. Buyurtmaxona maydoni 50 ming ga. Tashkil qilishdan maqsad – uchib o'tadigan suvda suzuvchi qushlarni muhofaza qilish va qayta tiklash, qishlash erlarini, yashash muhitini saqlab qolishdir. Buyurtmaxonani muhofaza qilish davlat tabiatni muhofaza qilish inspeksiyasi tomonidan amalga oshiriladi. Muhofaza doimiy emas, operativ reydlar orqali yuritiladi.

«Qoraqir» davlat buyurtmaxonasi Buxoro viloyati ijroqo'mining 25.01.92 yildagi 151-sonli qarori bilan tashkil qilingan. Buyurtmaxonaning muddati cheklanmagan. Maydoni 30 ming ga. Tashkil qilishdan maqsad – uchib o'tadigan qushlar va boshqa hayvonlarni, ular yashash va ko'payish erlarini muhofaza qilishdan iborat. O'zbekiston Respublikasi Tabiatni muhofaza qilish davlat qo'mitasi ixtiyorida. Buyurtmaxona hududini muhofaza qilish davlat tabiatni muhofaza qilish inspeksiyasi tomonidan amalga oshiriladi. Buyurtmaxona o'z soqchilariga ega emas. Arnasoy ornitologik buyurtmaxonasi Jizzax viloyati Forish tumanidagi Tuzkon ko'lida O'zSSR Vazirlar Kengashining 9.09.83 y.dagi 521-sonli qarori bilan tashkil qilingan. Buyurtmaxona maydoni 63,3 ming ga. Buyurtmaxona muddati cheklanmagan. Tashkil qilishdan maqsad – uchib o'tadigan va uya quradigan qushlarni muhofaza qilishdir. Buyurtmaxonani O'zbekiston Respublikasi Tabiatni muhofaza qilish davlat qo'mitasi – Jizzax viloyati tabiatni muhofaza qilish qo'mitasi va Davbionazoratning Arnasoy inspeksiyalari muhofaza qiladi.

«Saygachiy» davlat buyurtmaxonasi Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashining 29.11.91 y.dagi 311/42-sonli qarori bilan tashkil qilingan. Qoraqalpog'iston Respublikasi Mo'ynoq tumanida joylashgan. Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashining 11.02.2001 y.dagi 33/1-sonli qarori bilan buyurtmaxona tartibining amal qilish muddati 2010 yilgacha uzaytirildi. Buyurtmaxona maydoni 1 mln. ga. Buyurtmaxona sayg'oqlar (*Saiga tatarica*) CITES II va ular yashash joylari –

migratsiya yo'llari, qishlash va ko'payish erlari, shuningdek, boshqa, birinchi navbatda, Qizil kitobga kiritilgan hayvonlar – tuvaloq (*Otis Tarda*) UzRDBRL, yo'rg'a-tuvaloq (*Chlamydotis undulata*) UzRDB RL kabilarni muhofaza qilish maqsadida tashkilqilingan. Qoraqalpog'iston Respublikasi Tabiatni muhofaza qilish davlat qo'mitasiga bo'ysunadi.

«Sudoche» davlat ornitologik buyurtmaxonasi Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashining 29.11.91 yildagi 311/42-sonli qaroriga muvofiq tashkil qilingan. Qoraqalpog'iston Respublikasi Muynoq tumanida joylashgan. Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashining 11.02.2001 yildagi 33/1-sonli qaroriga muvofiq buyurtmaxona tartibining amal qilish muddati 2010 yilgacha uzaytirildi. Buyurtmaxona maydoni 50 ming ga. Ornitologik buyurtmaxonasini tashkil qilishdan maqsad – Amudaryo sohil bo'yidagi suv-botqoqlik joylari biologik kompleksini saqlab qolish, uchib o'tadigan qushlarni, ular ko'payishi va dam olishi joylarini muhofaza qilishdan iborat. Har yili ko'lda yuz minglab suvda suzuvchi va suv yaqinida yashaydigan qushlar dam oladi va ko'payadi. Qoraqalpog'iston Respublikasi Tabiatni muhofaza qilish davlat qo'mitasiga bo'ysunadi. «Muborak» davlat buyurtmaxonasi Qashqadaryo viloyati hokimiyatining 5.12.98 y.dagi X-344/12- sonli qarori bilan tashkil qilingan (muddati cheklanmagan). Buyurtmaxona maydoni o'zgartirilgan– 219534 ga. Tashkil qilishdan maqsad – yo'rg'a tuvaloq (*Chlamydotis undulata*), uning yashash joylari va boshqa yovvoyi hayvonlar yashash joylarini saqlab qolishdan iborat. Qashqadaryo viloyati Tabiatni muhofaza qilish qo'mitasi ixtiyorida. «Oqtog'» davlat buyurtmaxonasi Navoiy viloyati hokimiyatining 21.04.97 y.dagi K- 113-sonli qarori bilan tashkil qilingan (muddati cheklanmagan). Navoiy viloyati Nurota tumanidagi Oqtog' tizmasida joylashgan. Buyurtmaxona maydoni 15420 ga. Tashkil qilishdan maqsad - «Oqtog'» tog'li mavzesi tabiiy kompleksini saqlab qolish. Navoiy viloyati Tabiatni muhofaza qilish qo'mitasi ixtiyorida. «Qarnabcho'l» davlat buyurtmaxonasi Navoiy viloyati hokimligining 9.07.98 yildagi F-90-sonli qarori bilan tashkil qilingan (muddati cheklanmagan). Buyurtmaxona maydoni 25 ming ga. Tashkil qilishdan maqsad – birinchi navbatda,

yo‘rg‘a-tuvaloq (*Chlamydotis undulata*) va uning yashash joylari, shuningdek butun Qarnabcho‘l biologik kompleksini saqlab qolish.

Buyurtmaxona yo‘rg‘a-tuvaloq ko‘plab uchib o‘tadigan yo‘lda joylashgan. Navoiy viloyati Tabiatni muhofaza qilish qo‘mitasi ixtiyorida.

«Qo‘shrabod» davlat buyurtmaxonasi Samarqand viloyati ijroqo‘mining 8.07.92 y.dagi 86-k-sonli qarori bilan tashkil qilingan (muddati cheklanmagan). Buyurtmaxona maydoni 16 ming ga. Tashkil qilishdan maqsad – Qizil kitobga kiritilgan hayvonlar – yirtqich qushlar, Nurota qo‘riqxonasidan buyurtmaxona hududiga kiradigan Seversov qo‘yini (*Ovis ammon severtzovi*) muhofaza qilishdir. Samarqand viloyati Tabiatni muhofaza qilish qo‘mitasi ixtiyorida.

«Nurobod» davlat buyurtmaxonasi Samarqand viloyati ijroqo‘mining 8.07.92 y.dagi 86-k-sonli qarori bilan tashkil qilingan (muddati cheklanmagan). Buyurtmaxona maydoni 40 ming ga. Tashkil qilishdan maqsad – yovvoyi hayvonlar, jumladan, yo‘rg‘a-tuvaloq (*Chlamydotis undulata*) va uning yashash joylari, butun tabiiy cho‘l kompleksini muhofaza qilishdir. O‘zbekiston Respublikasi Tabiatni muhofaza qilish davlat qo‘mitasi – Samarqand viloyati tabiatni muhofaza qilish qo‘mitasi ixtiyorida. Davlat tabiiy yodgorliklari (O‘zbekiston Respublikasining «Muhofaza etiladigan tabiiy hududlar to‘g‘risida»gi Qonuni 26-moddasiga muvofiq Davlat tabiiy yodgorliklari III toifadagi METHga kiradi): Vardanzi Navoiy viloyati hokimligining 21.04.97 y.dagi K-113-sonli qaroriga muvofiq tuzilgan (SSRI davrida qo‘riqxona maqomiga ega bo‘lgan), maydoni 320 ga ni tashkil qiladi.

«Mingbuloq» tabiat yodgorligi Namangan viloyati hokimligining 28.12.91 yildagi 164/14-sonli qaroriga muvofiq tuzilgan, maydoni 1000 ga ni tashkil qiladi. «CHust» tabiat yodgorligi O‘rta Osiyo o‘simliklarni himoyalash ITI tashabbusi bilan Namangan viloyati hokimligining 19.08.90 yildagi 65/5-son-li qaroriga muvofiq (shuningdek, Namangan viloyati CHust tumani Xalq deputatlari kengashining 1990 y. 30 avgustdagi II-5/12-sonli qaroriga) muvofiq tuzilgan, maydoni 1000 ga ni tashkil qiladi.

«Yozyovon» tabiat yodgorligi Fargʻona viloyati hokimligining 23.05.94 yildagi 164-sonli qaroriga muvofiq tuzilgan, maydoni 1842 ga ni tashkil qiladi. «Markaziy Fargʻona» tabiat yodgorligi Fargʻona viloyati Xalq deputatlari kengashi Oxunboboev tumani ijroiya qoʻmitasining 1986 yil 2 avgustdagi qaroriga muvofiq «Solijonobod» xoʻjaligi erlarida tuzilgan, maydoni 142,5 ga ni tashkil qiladi. «YAngibozor» tabiat yodgorligi Xorazm viloyati YAngibozor tumani hokimligining (10.05.03 yildagi 738-sonli, 4.02.04 yildagi 819-sonli, 7.08.04 yildagi 853-sonli, 17.04.04 yildagi 1155-sonli) qarorlariga muvofiq tuzilgan. Maydoni oʻzgarib turgan va tegishli ravishda 136 ga, 113,2 ga, 120 ga, 121 ga ni tashkil qilgan, hozirgi paytda 490,3 ga.

«Muhofaza etiladigan tabiiy hududlar» boʻlimi tomonidan «Oʻsimlik olamini muhofaza qilish» boʻlimi bilan birgalikda 100 yosh va undan katta daraxtlarni hisobga olish va ularga «Davlat tabiat yodgorligi» maqomini berish uchun viloyat tabiatni muhofaza qilish qoʻmitalaridan kelgan axborotni jamlash va umumlashtirish boʻyicha ishlar amalga oshirildi. Mazkur maʼlumotlar asosida umumlashtirilgan jadval tuzildi va barcha daraxtlar hisobga olindi. Oʻzbekiston Respublikasidagi suv omborlari va boshqa hovuzlar, daryolar va magistral kanallar, shuningdek isteʼmol va maishiy suv taʼminoti, dorivor va madaniy-sogʻlomlashtirish suv manbalari haqidagi Nizom Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 07.04.92 y.dagi 174-sonli qarori bilan tasdiqlangan. Keyinchalik Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qator qarorlari bilan «Chirchiq, Oxangaron, Surxondaryo, Chimyon-Ovval yer osti chuchuk suvlari manbalarining shakllanish zonalariga alohida muhofaza etiladigan tabiiy hududlar maqomini berish toʻgʻrisida»gi, «Zarafshon daryosi zamonaviy vodiysi, Osh-Aravon, Norin, Kitob-Shahrisabz yer osti chuchuk suvlari manbalarining shakllanish zonalariga alohida muhofaza etiladigan tabiiy hududlar maqomini berish toʻgʻrisida»gi, shuningdek, Qashqadaryo viloyatidagi Qashqadaryo; Toshkeng viloyati va Toshkent shahridagi Chirchiq; Surxondaryo viloyatidagi Surxondaryo; Samarqand, Navoiy va Buxoro viloyatidagi Zarafshon; Andijon va Namangan viloyatidagi Qoradaryo; Surxondaryo, Xorazm viloyatlari

va Qoraqalpog‘iston Respublikasidagi Amudaryo; Andijon, Namangan, Sirdaryo, Toshkent va Farg‘ona viloyatlaridagi Sirdaryo daryolari suvni muhofaza qilish zonalarini va sohil bo‘yi polosasini belgilash haqidagi nizomlar tasdiqlandi.

Landshaftlar taraqqiyotini bashorat qilish: Har bir muayyan landshaft o‘ziga xos muhit hosil qiluvchi geotizimdir. Shu bilan birga, unda inson yashaydi va faoliyat ko‘rsatadi. Inson faoliyati va uning atrof-muhitga ta'siri XX asrning o‘rtalaridan boshlab jadal va xilma-xil tus oldi. Natijada atrof-muhit sezilarli darajada o‘zgara boshladi va ko‘pincha inson, jamiyat hayoti uchun salbiy bo‘lgan oqibatlarni keltirib chiqara boshladi. Ma'lumki, ular ilmiy texnika taraqqiyoti kuchayib borgan sari yanada jadallasha bordi. Bunday o‘zgarishlarni va ularning salbiy oqibatlarining oldini olish, asoratlarini bartaraf etish yoki iloji boricha kuchini kamaytirish uchun ularni oldindan ko‘ra bilish lozim bo‘ladi. Masalan, bironta yirik sanoat tuguni tashkil etish, yangi o‘zlashtirilgan maydonlar yoki yirik gidrotexnik inshootlarning foydalanilish muddati 100-200 yilga mo‘ljallangan bo‘lsa, inson o‘sha vaqt mobaynida ular qanday tabiiy va iqtisodiy sharoitlarda ishlashi lozimligi xususida ma’lum bir tasavvurga ega bo‘lishi kerak. Chunki, bunday qurilishlar yoki inshootlar loyihalarining texnik-iqtisodiy asoslarini ishlab chiqishda u yoki bu obyektning istiqboldagi asosiy texnik-muhandislik o‘lchamlari hisobga olinishi shart. Kundalik hayotda, fan, iqtisod va siyosatning turli jabhalarida bugun qabul qilinayotgan turli xil xulosalar va qarorlar kelajakning ko‘p xususiyatlarini belgilab berishi mumkin. Shuning uchun ham landshaftlarning kelajakda qaysi yo‘nalishda rivojlanishini va qanday o‘zgarishlarga yuz tutishini oldindan aytib berish, ya'ni bashorat qilish landshaftshunoslar ilmiy faoliyatida alohida ahamiyatga ega bo‘lishi lozim.

Landshaftlarning kelajagini oldindan aytib berish, bashorat qilish landshaftshunoslik fani oldida turgan dolzarb, ammo murakkab va muammoli masalalardan biridir. Bu borada bajarilgan ilmiy nazariy ishlarning soni ham, salmog‘i ham nisbatan katta emas. Bunday bashoratning mohiyati, mazmuni, hatto qanday atalishi haqida ham turli fikr va mulohazalar mavjud.

Keng ma'noda olganda, bashorat grekchadan kirib kelgan "profnosis" atamasining tarjimasi bo'lib, qandaydir voqea, hodisa, jarayonlarning rivojlanishi va yakunidagi o'zgarishlarni oldindan ko'ra bilish demakdir. Umuman, bashorat haqida aytilgan mulohazalarning birida bashorat qilish deganda kelajak haqida aynan kuzatib o'rganishning iloji bo'lmagan ma'lum turdagi hodisalar haqida ularning rivojlanish qonuniyatlarini bilish asosidagina tasavvurga ega bo'lish tushuniladi.

Yetakchi iqtisodiy geograflardan biri Yu.G. Saushkin 1980 yilda geografik bashoratni ijtimoiy-iqtisodiy bashoratning bir qismi deb hisoblaydi. Uning fikricha, geografik bashorat istiqbolda integral geotizimlar, ya'ni turli o'lkalar guruhi, muayyan o'lkalar, rayonlar, shaharlar, zonalar, landshaftlar kabi tizimlarda tabiat, aholi, xo'jalik orasida o'zaro ta'sir yuzaga kelishini ilmiy belgilab berishdir. Geografik bashorat tabiiy geografik, demografik va ijtimoiy-iqtisodiy geografik bashoratlarga (shu jumladan, masalan, sanoat tugunlari joylashuvi va rivojlanishini bashorat qilish) bo'linadi. Geografik bashorat qilishni Yu.G.Saushkin hozirgi zamon geografiya fani rivojlanishidagi yangi bir bosqich deb hisoblaydi hamda geografiyaning umumiy nazariyasi, to'plangan ma'lumotlar va amaliy ishlanmalarda foydalanish bilan bog'liqdir, deb hisoblaydi.

Taniqli tabiiy geograf T.V. Zvonkova 1987 yilda geografik bashorat qilishning ilmiy asoslari haqida fikr yuritarkan, "Geografik bashorat qilish - bu ijtimoiy ishlab chiqarishda tabiiy muhit va xo'jalikning o'zgarish muddatlari va o'lchamlarini hamda tabiiy va antropogen rivojlanish yo'nalishlarini aniqlashga qaratilgan ilmiy izlanishdir. Bu hududiy tizimlarning kelajakdagi holatlarini, ularning o'tmishda va kelajakda ichki tuzilishi va faoliyati qanday bo'lgan hamda qanday bo'lishi mumkinligini tahlil qilish asosida oldindan ilmiy ko'ra bilishdir", deb yozadi.

Geografik bashorat tushunchasining to'laroq va batafsilroq ta'rifini V.B. Sochava 1974 yildagi ishida ko'ramiz. "Geografik bashorat deb yozadi u- kelajakdagi tabiiy geografik tizimlar haqida, ularning tub xususiyatlari va turli-tuman, jumladan, inson faoliyatining kutilgan va kutilmagan natijalari sababli,

o'zgarishi mumkin bo'lgan holatlari haqidagi tasavvurlarni ilmiy ishlab chiqishdir". V.B. Sochavaning fikricha, geografik bashorat qilish, kengroq ma'noda olganda, xususiy va tarmoqlar muammolarini ham qamrab oladi. Ammo, haqiqiy geografik bashorat kelajakning geografik tizimlari haqida tasavvur berishi kerak. Geografik bashorat qilish tabiiy sharoitni bashorat qilish bilan birga, uning kelajakda qanday holatda bo'lishi mumkinligi, bashorat qilinayotgan atrof-muhitga insonning barcha xil ta'sirlarini ham o'z ichiga olgan bo'lishi kerak. "Shunday qilib V.B. Sochava-geografik bashorat insonning o'z atrof-muhitga qiladigan ta'sirining barcha xillarini qamrab oladigan tabiiy bashoratdir".

F.N. Milkov 1990 yil tabiiy-geografik bashorat qilish o'z oldiga qo'ygan asosiy maqsadi geografik qobiqda, landshaftlarda va ularning komponentlarida yaqin va uzoq kelajakda bo'ladigan o'zgarishlarning yo'nalishi va jadalligini aniqlashdan iboratdir, deb hisoblaydi.

A.G. Emelyanov 1980 yilda tabiiy geografik bashorat qilish deganda tabiiy muhitda bo'ladigan o'zgarishlarning miqyosi, tezligi, darajasi va yo'nalishlarini aniqlashga qaratilgan ilmiy izlanishlarni tushunadi. A.G. Isachenko 1980 yil V.B. Sochavaning fikrlariga to'la qo'shilgan holda, faqat bashorat qilishning nomigagina e'tiroz bildiradi va uni "landshaft - geografik bashorat", deb atashni lozim topadi.

Ayrim bashoratlar bo'yicha 2050 yillarda havo harorati XIX asr oxiridagiga qaraganda 3-4⁰C ortishi kutiladi. Buning oqibatida yer yuzasida atmosfera yog'inlarining taqsimlanishi ham, miqdori ham o'zgarishi mumkin. 1988 yil M.I. Budikoning yozishicha, Turkistonda iqlimning tabiiy o'zgarishi sababli namgarchilik ortadi. XXI asr o'rtalariga kelib yog'inlar miqdori qariyb 2 barobar ko'payadi va natijada Turkiston cho'llari namgarchilik bo'yicha janubiy Ukrainaga o'xshab ketadi. Yer kurrasi iqlimidagi bunday o'zgarishlar tabiat zonalarining chegaralariga ham ta'sir etmay qolmaydi, albatta.


Landshaftlarni bashorat qilishning tamoyillari kabi usullari ham turli-tumandir. Umum ilmiy bashoratlarning 150 dan ortiq metod va usullari mavjud. Ammo ularning har biridan landshaftlarni bashorat qilishda unumli foydalanish

mumkin deb bo'lmaydi. Ularning ayrimlaridagina foydalanish mumkin, xolos. Buning asosiy sababi, bashorat qilinadigan obyekt-geotizimlarning murakkabligi, serqirraligi va ko'p omilliligidir. A.G. Emelyanov (1982) landshaft xaritalarini tahlil qilish, aerokosmik suratlardan foydalanish, indikatsiya metodlarini metod emas, balki metodik usul deb qaraydi. Uning fikricha, tabiiy geografik bashorat metodlari va usullari tizimi quyidagicha ko'rinishga ega bo'lishi kerak

1-sxema

Tabiiy geografik bashorat metodlari va usullari tizimi

(A.G.Emelyanov, 1982)



Xulosa

1. Tabiat bilan jamiyat orasidagi o'zaro ta'sir va aloqadorlik nihoyatda murakkab jarayon bo'lib, u dastavval kichik hududlarda landshaft, urochishe va fatsiya kabi tabiiy geografik komplekslarda, ularning tabiiy resurslaridan foydalanish bilan bog'liq bo'lgan holda kechadi. Shuning uchun ham kichik hududlar tabiiy geografiyasi yoki landshaftshunoslikning asosiy vazifalari hisoblanmish landshaft va uning morfologik qismlarini aniqlash, xaritaga tushirish, ularning strukturasini, ichki aloqadorliklarini, dinamikasini, rivojlanishi va barqarorligini tadqiq qilish, kichik hududlarni xalq xo'jaligi nuqtai nazaridan baholash, ichki imkoniyatlarini aniqlash va samaradorligini oshirish va hokazolar muhim ilmiy va amaliy ahamiyat kasb etadi;

2. Hozirgi vaqtda tabiiy landshaftlar inson faoliyati natijasida shunday tashqi ta'sirga duch kelmoqdaki, bu o'z navbatida tabiiy geografiyaning bir qismi bo'lgan landshaftshunoslik oldiga yangi-yangi ilmiy va amaliy muammolarni qo'ymoqda. Ularning ichida eng muhim va dolzarb hisoblanganlari landshaftlarning turli tashqi ta'sirlarga barqarorligini aniqlash, ularni xalq xo'jaligining turli tarmoqlarida foydalanish nuqtai nazaridan baholash, ularning inson ta'sirida o'zgarishini va bu o'zgarish qaysi yo'nalishda ro'y berishini oldindan aytib berish, ya'ni prognozlash, o'zgartirilishi lozim bo'lgan landshaftlarni haqiqiy madaniy landshaftlarga aylantirish va ularning samaradorligini oshirishning ilmiy asoslarini yaratish kabilardir;

3. Landshaftlar ham, ularning morfologik qismlari ham xuddi ekologik tizimlar kabi tabiiy tizimlardir. Ular ham komponentlari o'zaro aloqador va bog'liq bo'lgan bir butun tabiiy hosilalar sifatida o'rganilishi lozim. Bu o'z navbatida landshaft tadqiqot ishlarida eng asosiy vazifalardan biri sifatida ularning strukturasini, dinamikasini va rivojlanishini, maxsus faoliyatini, inson faoliyati ta'sirida o'zgarganlik darajasi va h.k. larni ilmiy tahlil qilib berish kerakligini ko'rsatadi;

4. Inson bilan tabiat aloqadorligi muammolarini ijobiy hal etishda ekologiya fani biologik fanlar ichida qanday ahamiyatga ega bo'lsa, landshaftshunoslik fani ham geografik fanlar tizimida shunday ahamiyatga ega bo'lishi kerak.

5. Mamlakatimizda quyidagi landshaftlarni tafovut qilish mumkin:

- O'zbekiston hududi cho'l mintaqasi landshaftlari;
- O'zbekiston hududi adir mintaqasi landshaftlari;
- O'zbekiston hududi tog' mintaqasi landshaftlari;
- O'zbekiston hududi yaylov mintaqasi landshaftlari;
- O'zbekiston hududi antropogen landshaftlari;

6. O'zbekiston tabiatining biologik va landshaftlar xilma-xilligi milliy boyligimizdir. Bu boylik o'z tarixiy taraqqiyotiga ega va ajdodlarimizdan qarzga olingan ne'matdir. So'ngi yillarda qishloq xo'jaligi va sanoat hamda urbanizatsiya loyihalarini amalga oshirish natijasida mamlakatimiz tabiatining xilma-xilligiga putur yetkazildi. Bularning hammasi landshaftlarda ekologik vaziyatning yomonlashuviga olib keluvchi salbiy jarayonlarning rivojlanishiga sabab bo'ldi.

7. Shaharlarning rivojlanishida tabiiy landshaftlarning biotik va abiotik omillari ta'sir ko'rsatsa-da, urbanizatsiya natijasida turlar genofandi yangilanadi, aholining o'rtacha umri ko'rishi yuksaladi, sinantrop turlar soni ortadi, aholining ekologik savodxonligi oshadi va boshqalar.

8. Mamlakatimizda landshaftlar muhofazasiga oid quyidagi qonunlar qabul qilingan:

-1992 yil 9 dekabrda "Tabiatni muhofaza qilish" to'g'risidagi qonun qabul qilingan;

-1993 yil 6 mayda "Suv va suvdan foydalanish" to'g'risidagi qonun qabul qilingan;

-1993 yil 7 mayda "Alohida muhofaza qilinadigan tabiiy hududlar" to'g'risidagi qonun qabul qilingan;

-1994 yil 23 sentabrda(2002 yil 13 dekabrda yangi tahriri) "Yer osti boyliklari" to'g'risidagi qonun qabul qilingan;

-1995 yil 30 avgustda “O’simliklar karantini” to’g’risidagi qonun qabul qilingan;

-1996 yil 26 aprelda “Tabiatni muhofaza qilish davlat qo’mitasi” to’g’risidagi nizom qabul qilingan;

-1997 yil 25 aprelda “Geodeziya va kartografiya” to’g’risidagi qonun qabul qilingan;

-1997 yil 26 dekabrda “O’simlik va hayvonot dunyosini muhofaza qilish hamda foydalanish” to’g’risidagi qonun qabul qilingan;

-1998 yil 30 aprelda “Yer kodeksini tasdiqlash” to’g’risidagi qonun qabul qilingan;

-1999 yil 15 aprelda “O’rmon” to’g’risidagi qonun qabul qilingan;

-2002 yil 4 aprelda “Shaharsozlik” to’g’risidagi qonun qabul qilingan;

-2002 yil 5 aprelda “Chiqindilar” to’g’risidagi qonun qabul qilingan;

-2004 yil 3 dekabr “Muhofaza etiladigan tabiiy hududlar” to’g’risidagi qonun qabul qilingan;

Foydalanilgan adabiyotlar

- 1.Абдулкасимов А. Антропогенная трансформация ландшафтов Средней Азии и вопросы её прогнозирования//География и природные ресурсы, №3.1980.-С.5-33.
2. Алпатов А.М. Развитие, преобразование и охрана природной среды. -Л.: Наука, 1983.-С.17.
- 3.Ahmedov E.A. O‘zbekiston shaharlari mustaqillik yillarida||Toshkent, Abu Ali ibn Sino nomidagi tibbiyot nashriyoti, 2002.-В.23.
- 4.Бабурин В. Л., Битюкова В.Р., Казмин М.А., Махрова А.Г. Московский столичный регион на рубеже веков: новейшая история и пути развития. – Смоленск: Ойкумена, 2003.-С.184.
- 5.Браде И., Персик Э., Питерский Д. Районная планировка и разработка схем расселения//Москва, 2000.-С.136.
6. Бабаев А.Г. Проблемы освоения пустынь. Ашхабад, 1995.-С.336.
7. Доманский Р. Экономическая география: динамический аспект. Пер. с польского//Москва, 2010.-С.376.
8. Хайдаров Қ., Хожиматов Қ. Ўзбекистон ўсимликлари.Тошкент, 1976.-Б.28.
- 9.Исаченко А.Г. Ландшафтоведение и физико-географическое районирование //Москва, 1991.-С.66.
10. Лаппо Г.М. География городов//Москва, 1997.-С.480.
- 11.Лейзерович Э.Е. Экономико-географические проблемы освоения пустынь//Москва.1968.-С.158.
- 12.Максудов А. Изменение почвенно-экологических условия Ферганской долины под антропогенным воздействием//Ташкент, 1990.-С.78.
13. Милков Ф.Н. Ландшафтная сфера Земли//Москва.1970.-С.89.
14. Милков Ф.Н. Человек и ландшафты//Москва.1973.-С.9.
- 15.Маергойз И.М. Географическое учение о городах//Москва.1987.-С.236.
- 16.Назаров И.К. Абиогенные потоки в аридных геосистемах: оптимизация природопользования//Тошкент. Фан, 1992.-С.100.

17. Назаров И.Қ., Аллаёров И.Ш. Бухоро географияси//Бухоро, 1994.-Б.67.
18. Персик Э.Н. Города Мира: география мировой урбанизации//Москва. 1999.-С.384.
19. Реймерс Н.Ф. Природопользование, Словарь-справочник//Москва.1990.-С.55.
20. Соатов А. Анализ физико-географических условий Узбекистана для сел градостроительства. Автореферат//Ташкент, 1993.-С.19.
21. Солиев А., Қаршибоева Л. Иқтисодий географиянинг назарий ва амалий масалалари//Тошкент. Зиё, 1999.-Б.22.
22. Худойбердиев Т.Х. Экологик география//Фарғона, 2001.-Б.1-49.
23. Закиров Ш.С. Ландшафтшунослик асослари//Тошкент. Университет, 1994.-Б.45.
24. Зокиров Ш.С. Антропоген ва амалий ландшафтшунослик//Тошкент. Университет, 1998.-Б.49-50.
25. [http:// www.un.org/ esa/ population/ publikations/](http://www.un.org/esa/population/publikations/) WUR 2005.BMTning “Jahon urbanizatsiyasi istiqbollari”.
26. [http:// www. usbektourism/ us/](http://www.usbektourism.us/)-Toshkent, Samarqand, Xiva, Buxoro, Shahrisabz, Termizning boy va koʻhna tarixi.
27. [http:// www gretestcities com](http://www.gretestcities.com)-Eng yirik shaharlar.
28. [http: www .urban. org .ru](http://www.urban.org.ru) –Urbanizatsiya.
29. [http:// www/ ziyonet. uz](http://www.ziyonet.uz)
30. [http:// www/ referat. uz](http://www.referat.uz)